**Kalit so'zlar:** Garchi Navoiygacha turkiy tilda Sakkokiy, Atoiy, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirog'oniy, Lutfiy va boshqa shoirlar qalam tebratishgan, go'zal she'rlar yaratishgan bo'lsada, faqat Alisher Navoiygina uni chinakam yuksaklikka ko'tara oldi.



Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilining nufuzini oshirish, taraqqiy ettirish, she'riyatda bu til fazilatlaridan unumli foydalanish borasida o'ziga xos maktab yaratdi. Garchi Navoiygacha turkiy tilda Sakkokiy, Atoiy, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirog'oniy, Lutfiy va boshqa shoirlar qalam tebratishgan, go'zal she'rlar yaratishgan bo'lsada, faqat Alisher Navoiygina uni chinakam yuksaklikka ko'tara oldi. O'z ijod namunalari bilan bu tilda ham go'zal she'ru dostonlar, nasriy asarlar yarati olish mumkinligini isbotladi, Holbuki, Navoiygacha ayrim forsigo'y ijodkorlar, millati turkiy bo'lgan shoirlarning ham bir qismi yaxshi she'rni faqat arab yoki fors-tojik tilidagina aytish mumkin, bu jihatdan turkiy til ancha sahroyi va dag'al degan fikrda edilar. Millati ozarbayjon bo'lgan Nizomiy Ganjavi-yninng ona tilisi qolib, buyuk asarlarini, "Xamsa" sini fors-tojik tilida yaratganligi ham bir jihatdan ana shunday tushuncha bilan bog'liq. O'zi turkey bo'lsa-da, faqat arab va fors-tojik tilida she'rlar, dostonlar yaratgan ijodkorlar ham kam emas.

Alisher Navoiy esa deyarli barcha asarlarini, "Xamsa" sini turkiy tilda yaratdi.





Bu tilning javohirlar ummoni ekanligini amalda ko‘rsata oldi. Shunda raqiblari u forstojik tilida yaxshi she‘r ayta olmaganligi uchun ham turkiy tilda qalam tebratmoqda deb da’vo qilmasliklari uchun forstojik tilida ham Foniy taxallusi bilan ajoyib g‘azallar, ruboiylar yaratdi. Salaflari Hofiz, Sa’diy, Xusrav Dehlaviy, Kamol Xo‘jandiy, Abdurahmon Jomiylarning go‘zal she‘rlariga muxammaslar, tatabbu’lar bog‘ladi. Fors-tojik tilidagi g‘azallari, muxammas, musaddas va ruboiylaridan “Devoni Foniy”ni tartib berdi. Alisher Navoiy faqat shu bilan cheklanmadni, albatta. U turkiy tilning forstojik tilidan afzalligini ko‘rsatish uchun “Muhokamatul-lug‘atayn” asarini yaratdi. O‘zbek adabiy tilining ravnaqi uchun kurashish faoliyatining muhim, uzviy qismi bo‘lgan shoir bu mulohaza tarzida bitgan asarida o‘zbek tilini kamsitgan kishilarga yana bir bor zarba berdi. Bu tilning boy va serqirraligini, latofatini ko‘rsatish uchun shunday misollar keltirdiki, u nga qarshi turmoqchi bo‘lganlar ojiz qoldilar. Bunday olganda, Navoiyning umri oxirrog‘ida yaratilgan bu asarda u o‘zbek tilining ravnaqi uchun olib borgan ko‘p yillik kurashini, adabiy til va adabiyot sohasidagi boy tajribalarini nazariy jihatdan yoritib va yakunlab, tilshunoslik fanining nodir asarini yaratdi.

Navoiy “Muhokamatul-lug‘atayn”da tilga ijtimoiy hodisa siftida qaraydi.

Uning fikricha, til insonni hayvondan ajratuvchi “lisoni sharif”dir.

Til tafakkurning ifoda vositasidir. Mutaxassislar fikricha, “Muhokamatul – lug‘atayn” tilshunoslikka doir asar bo‘libgina qolmay, o‘zbek mumtoz adabiyotining taraqqiy etish jarayoni va uing istiqbolini ham yoritgan muhim manbadir. Asarda Navoiy arab tilining go‘zal va latifligini ta’kidlash barobarida undaan keyin yana uchta til borki, ularning shoxobchalari-tarmog‘i bag‘oyat ko‘pdir. Bular turkiy, forsiy va hindiy tillardir, ular asl tillarning boshlanishidir, degan fikrni bildiradi. Navoiyning mahorati shundaki, u yoki bu so‘zning eng nozik, ko‘pdan-ko‘p shakllarini keltiradi. Shu o‘rinda uning turkiy juda ko‘p shevalarni yaxshi bilishi ham ko‘rinadi. Navoiy “ot”, “tush” kabi so‘zlarning uch xil, “ko‘k” so‘zining o‘zbekcha besh xil ma’nosini keltiradi. Zukko olim sifatida turkiy til bilan forsiy tilni o‘zaro qiyoslaydi va turkiy tilning ko‘p jihatdan ustunliklarini ko‘rsatadi. Bu bilan boshqa tilni kamsitish emas, balki turkiy tilning naqadar boyligini aks ettirish maqsadida shunday ish tutadi. Masalan, deydi Navoiy turkiylar ovqatni taom, yegulik, g‘izo derlar, forsiylar esa barchasi yemakni ham, ichmakni ham “ho‘rdani” derlar. Ular kattani ham, kichikni ham “bardar”, derlar, turkiylar esa kattani “og‘a”, kichikni “ini” derlar. Va alar ulug‘, kichik qiz qarindoshni bir xil “xohar” derlar, Va bular ulug‘in “egachi”, “kichikni” singil, derlar, deb ta’kidlaydi. Navoiy ov xususida to‘xtalib, “Va yana bir... to‘ng‘uz ovidur, aning ham erkagini “qobon,” tishisini ( urg‘ochisini) “megajin” va ushog‘ini “churpa” derlar. Forsiylar barchasini “xuk” va “guroz” lafzi bilan aytur”, deydi. Navoiy o‘rdakning jo‘rka, erka, suqtur, olmabosh, cholkirqanot, temirqanot, aldaldag‘a, alapaka, bog‘chal nomlarini keltiradi va jami bo‘lib yetimishta nomi borligini qayd qiladi. Sort (tojik)lar barchasini “murg‘obi” deydi, deb bitadi. Shuningdek, Navoiy o‘tov, ot abzallari, bosh kiyimi, chodir, qurol-aslahalar, qo‘yning tana a‘zolari, oziq-ovqat mahsulotlarining nomlari ham turkiychada juda ko‘pligini misollar vositasida ochib beradi. “Yana bir anvondaki, tubuchoq va arg‘umoq va yaka va yobu va totuyo‘sunluq, barini turkcha ayturlar.



Bir qulunni “kurra” derlar. O‘zga toy va g‘unan va do‘nan va tulan va chirg‘a va langa deguncha fasihroqlari turkcha derlar va ko‘pragi muni ham bilmaslar”,-deb bitadi.Umuman, Alisher Navoiyning “Muhokamatul-lug‘atayn” asari o‘zbek tilining boyligini , latifligi va o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi mumtoz manba sifatida b ugungi kunda ham barcha tilshunos va adabiyotshunoslar,til boyligi va ravnaqi bilan qiziquvchilar uchun muhim qo‘llanma sifatida katta ahamiyatga ega va shuning uchun bag‘oyat qimmatlidir.

Manbalarda keltirilishicha, «Pushkin o‘z asarlarida 21197 ta betakror so‘z shlatgan, Shekspir salkam 20 mingta, Servantes mingtaga yaqin. Alisher Navoiy 1 m illion 378 ming 660 ta betakror so‘z ishlatgan. Boisi, buyuk bobomiz faqat turkiy emas, forsiy, arabiyl, urdu, xitoy, mo‘g‘ul va boshqa tillardagi so‘zlardan ham mahorat bilan foydalangan». Binobarin, Bobur ta’biri bilan aytganda: “Turkiy til bila to she’r aytibdurlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas”. Haqiqatdan ham, badiiy ijod olamida hali hech kim Alisher Navoiychalik hisobsiz va betakror so‘z ishlatgani yo‘q. Husayn Boyqaro ta’kidlaganidek: “Mir Alisher turk tilining o‘lik jasadig‘a Masih nafasi ila jon ato etdi”. Shuning uchun ham Navoiy siymosi hamisha buyuk va barhayot.

### Foydalangan adabiyotlar:

- 1 “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi», Toshkent, «O’qivchi», 1999 y.
- 2.Umurov “Adabiyot qoidalari” (Akademik litseylar uchun), Toshkent. «O’qituvchi», 2002 y.
3. «U kim, bu nima», bolalar ensiklopediyasi, Toshkent, 1988.
4. “Shox va shoir Xusayn Boyqaro», Toshkent, 1995 y.
5. «Alisher Navoiy. G’azallar» Toshkent, «Kamalak», 1991 y.
- 6.Nasafiy «Xoja Umar Yassaviy». Toshkent, 1993 y. 196
7. T. Boboyev «She’r ilmy ta’limi», Toshkent, «O’qituvchi». 1996.



## HAMID OLIMJONNING “OYGUL BILAN BAXTIYOR” ERTAK-DOSTONINING O‘ZIGA XOSLIGI VA IJODKORNING TASVIR MAHORATI

*O‘z-FinPI Boshlang‘ich ta’lim va gumanitar fanlar fakulteti “Boshlang‘ich ta’lim na’zariyasi” kafedrasi dotsenti A.Namazov, asisstanti M.Mirsanova va 211-guruh talabasi Musirmanova Shoxsanam Xamza qizi*

Tel: +998 99 525 68 63  
*moxiramirsanova@gmail.com*

### ANNOTATSIYA

Bu maqolada “Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostonining o‘ziga xosligi, dostondagi obrazlarning tarbiyaviy ahamiyati, qahramonlik sifatlari, iste’dod tushunchasi, ijodkorning tasvir mahorati, ertak-doston janri taraqqiyotida bu asarning tutgan o‘rnini haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** ertak-doston, obraz, iste’dod, shoir, Oygul, Baxtiyor, Darxon, Jurjon xoni, Jambil xoni.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится об уникальности сказки «Ойгуль билан Бахтиёр», воспитательной значимости героев эпоса, героических качествах, понятии о таланте, образном мастерстве художника, а также о роли этого произведения в развитии жанра сказки.

**Ключевые слова:** сказка, образ, талант, поэт, Айгуль, Бахтиёр, Дархан, Хан Джурджон, Хан Джамбиль.

### ABSTRACT

This article talks about the uniqueness of the fairy tale "Oygul bilan Bakhtiyor", the educational significance of the characters in the epic, heroic qualities, the concept of talent, the artist's image skills, and the role of this work in the development of the fairy tale genre.

**Key words:** fairy-tale, image, talent, poet, Aigul, Bakhtiyor, Darkhan, Khan Jurjon, Khan Jambil.

### KIRISH

Atoqli shoir Hamid Olimjon ijodi adabiyotimizda o‘zining alohida bir qimmatiga ega. Shoir yozgan asarlari xalqimizning sevimli kitoblari safidan allaqachon joy olgan. Ijodkorning she’rlaridan barq urib turadigan joziba, o‘zgacha bir ko‘tarinkilik har bir she’riyat ixlosmandining qalbini zabt etmay qolmaydi.

Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostoni adabiyotimizdagi ertak-doston janri taraqqiyotida o‘zining munosib o‘rniga ega. Bu asarning ta’svir



uslubi, badiiy qochirmalarga boyligi, mubolag‘ali ta’svirlarning go‘zalligi o‘quvchining qalbida o‘zgacha bir kayfiyat uyg‘otadi. Asar shoirning bolalik xotiralari tasviri bilan boshlanadi. Bolaligida buvisidan ertaklar, dostonlar, afsonalar tinglab ulg‘aygan shoirda shoirona ruh va shoirona kayfiyatni vujudga kelishida buvisining aytmishlari katta ahamiyatga ega deb o‘ylaymiz. Asardan keltirilgan ushbu parchaga diqqat qilsak:

O‘t bog‘lagan qanotlar,  
Beqanot uchgan otlar,  
Baxtiyor bilan Oygul,  
Qiz bo‘lib ochilgan gul,  
So‘ylaguvchi devorlar,  
Bola bo‘p qolgan chollar...  
Buvimning har qissasi,  
Har bir qilgan hissasi  
Fikrimni tortar edi,  
Havasim ortar edi...

“Beqanot uchgan otlar”, “Qiz bo‘lib ochilgan gul”, “So‘ylaguvchi devorlar”, “Bola bo‘p qolgan chollar” satrlariga diqqat qilsak:

Bola ongida, ruhiyatida bu qanday fikrlarni, qanday xayoliy tasavvurlarni paydo qilgan ekan? Bola otning qanotsiz uchishini, gulning ochilganda qizga aylanib qolishini, devorlarning odamlar kabi tilga kirib gapirib ketishini, keksa bir cholning yosh bolachaga aylanib qolishini o‘zining sarguzasht talab ongi bilan idrok etadi, yangi topilmalar, yangi sarguzasht va yangi mubolag‘alar yaratadi.

Ijodkorning chinakam ijodkor bo‘lib shakillanishida, shoirona ruhiyatining yuksalishida Olloh tomonidan berilgan iste’dodning, qirralari shakllanishida buvisining xizmati ham alohida ahamiyatga ega. Taniqli shoirimiz Erkin Vohidovning iste’dod haqidagi fikrlariga shu o‘rinda e’tibor qaratsak:

“Iste’dodning o‘zi qolipga sig‘maydigan, turli-tuman tabiatli va aql bilan anglash qiyin bo‘lgan sirdir. Barcha iste’dodlar kabi shoirlilik iste’dodi ham tug‘ma bo‘ladi va bolalikdan o‘zini namoyon etadi. Bu kunduzdek ravshan haqiqatning o‘zidek ayon. Tug‘ma iste’dod egasi bo‘lmagan, she’riyatga havas tufayli adabiyotga kirib qolganlar umr bo‘yi havaskor bo‘lib qoladilar...”<sup>1</sup>.

Iste’dodsiz kishi adabiyot olamida erkin nafas olishga qiynaladi, shuningdek, ular tomonidan yozilgan ijod mahsulining ham umri qisqa bo‘ladi va bunday asarlar zavolga yuz tutadi. Yana shunday ijod ahli ham borki, ularga tug‘ma iste’dod Olloh tomonidan berilgan, ammo bu iste’dod yuzaga chiqishi uchun uni tarbiyalash zarur,

<sup>1</sup> Vohidov E. Shoiru she’ru shuur. Adabiy o‘ylar. – Toshkent, 1987. 83-bet. 16-bet.

shundagina u yuksaklarga parvoz qiladi. Ijodkor nafas oladigan havo adabiy muhitdir. Bu havo toza va musaffo bo‘lmog‘i kerak.

Alloh bergen talantni hamma ham anglayvermaydi, buni anglamoq va tinimsiz mehnat natijasida rivojlantirmoq lozim. Bu borada ilmning hikmati ham katta albatta, har birimiz bilimlarni chuqur o‘rganishga intilmog‘imiz, imkoniyatlarimizni va maqsadlarimizni ilmga yo‘naltirmog‘imiz lozim. Shundagina bizda yashiringan qobiliyatni, salohiyatni yuzaga chiqishi boshlanadi. “Ilm- ikki dunyo saodatining kaliti” – deganlarida bobolarimiz nimani nazarda tutganlar? Biz bilim sabab dunyoni anglaymiz, o‘zligimizni, bu dunyoda yashashdan maqsad nima ekanligini, yashaganda ham qanday yashamoq lozimligini, halol nima-yu, harom nimaligini ham shu ilm sabab anglaymiz. Har bir inson to‘plagan bilimlari natijasida ikki dunyo saodatiga erishmoq uchun nima qilmoq lozimligi xususida xulosa chiqaradi va shunga qarab ish tutadi. Ijodkorning ilmi kuchli bo‘lsa, u yaratgan asarlar ham kuchli mazmun mohiyatga ega asarlar bo‘lib yaratiladi.

Shoirning “Oygul bilan Baxtiyor” dostoni syujetiga xalqning o‘z kuchi va kelajakdagi porloq hayotiga ishonchida namoyon bo‘lgan yuksak ruh singib ketgan. Bundan tashqari vatanni sevish, zulmga qarshi g‘azab-nafrat bilan kurashni targ‘ib qiladi. Botirlik, maqsadga erishish yo‘lida savodli bo‘lishga yosh kitobxonni da’vat etadi. Maqsadni ifodalash uchun shoir dostonda yaxshilik bilan xudbinlikni qarama-qarshi qo‘yadi. Asarda xalq kurashi va qo‘zg‘oloni Darxon bilan uning qizi Oygul boshchiligidagi namoyon bo‘ladi.

Oygul faqat go‘zalligi bilangina emas, balki jasur, mehnatkash, irodali, aqlli, xalqparvar, tadbirli ayol timsoli sifatida ham chinakam xalq qahramoni darajasiga ko‘tariladi va o‘quvchida unga nisbatan chuqur muhabbat uyg‘otadi. Shoir Oygulni o‘z el-yurtini chin dildan sevgan, mamlakat obodonchiligi uchun tinmay kurashgan vatanparvar va xalqparvar ayol sifatida ulug‘laydi.

Asarda Jambil yurtida ko‘tarilgan isyonda yengilgan qo‘zg‘olonchi sifatida ko‘rilgan Oygulni zolim xon o‘ldira olmaydi. Shuning uchun uni zindonga soldiradi. Saroya xizmat qiladigan xondan juda ko‘p jabr-u jafo ko‘rgan Tarlon ismli keksa qul zindonda yotgan Oygulni qutqarishga jazm etadi. Qizni sandiqqa solib daryoga oqizib yuboradi. Sandiqqa Oygul uchun yetadigan qilib non ham solib qo‘ygan edi. Sandiq oqib-oqib Jurjon yurtiga kelib qoladi. Sandiqni bir kambag‘al chol suvdan olib chiqadi. U sandiqni ichidan odam ovozi kelganini eshitadi va odamlar orasiga ochishga ahd qiladi, lekin boshi baloda qoladi. Shu yerdagi odamlar uni o‘g‘ri gumon qilib saroya podshoh huzuriga olib keladi. Oddiy odamlar taqdiriga befarq, bag‘ritosh podshoh sandiqni ochib ko‘rmasdan cholni o‘ldiradi. Podshoh sandiqni ochdiradi va uni ichidagi Oygulni ko‘rib darrov unga erishishni xohlaydi. Oygul esa undan jirkanadi lekin hiyla ishlatadi va qirq kun muhlat suraydi podshoh esa bir kunga ruxsat beradi. Oygul qirq qizlar bilan cho‘milishni bahona qilib daryoga keladi va

uzini suvga otadi. Suvda uni bir Jayhun baliq yutib yuboradi. Baxtiyor esa baliqni tutib uyiga olib keladi va Oygulni baliq qornidan chiqaradi. Oygul yori Baxtiyor bilan Susambilni jannatmisol yurtga aylantiradi, lekin uning yodidan o‘z eli Jambil, uning ezilgan xalqi, nohaq o‘ldirilgan otasining xotirasi ketmas edi. Xalqini xon zulmidan qutqarish niyatida Jambilga hujum qiladi va g‘alaba qozonadi. Qonxo‘r xondan qutulgan elga Tarlon otani rahbar etib tayinlab o‘zi Susambil, ya’ni Baxtiyoring yurtiga qaytadi va baxthli hayot kechiradi. Ko‘rinib turibdiki, Oygul behad qiyinchiliklarga duch keladi. Shoir Oygul obrazini yaratish bilan xalq kuchi va irodasini sindirib bo‘lmasligini singdirgan. Asarda Baxtiyor obrazi xalq qahramonlariga xos xususiyatlariga ega shaxs sifatida tasvirlanadi.

“Oygul bilan Baxtiyor”da keksa Darxon obrazi ham diqqatga sazovor hisoblanadi. Darxon jabr-zulmga qarshi ozodlik uchun kurash olib borgan isyonchilarning boshlig‘idir. U zo‘r irodali, zulm va nohaqlikka qarshi kurashuvchi isyonkor sifatida tasvirlangan.

Asarda bundan tashqari Jambil elining qonxo‘r xoni, zulmga qarshi bosh ko‘targan xalqqa rahbarlik qilgan keksa Darxonning boshini tanasidan judo qilib, uning go‘zal qizi Oygulga tikilishi. Qo‘pol hissiz tabiatli kimsalarga xos bo‘lgan pastkash nazar mujassam etiladi. Shoir “quturib qahri keldi, ilonday zahri keldi” kab aniqi o‘xshatishlar orqali xonning zolimligini yana ham yaqqolroq ko‘rsatadi.

Hamid Olimjonning ertak-dostoni kitobxonlarga estetik zavq berish bilan birga, yosh avlodni qahramonlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashga ham xizmat qiladi. U o‘z qahramonlari xarakteriga mos sifatlarni, tasvirlanayotgan manzara yoki holatga uyg‘un o‘xshatishlarni topadi. Bu asar allaqachon o‘zining o‘quvchilarini topib, sevimli kutubxonasidan joy olgan. Ijodkor bu asari bilan o‘zbek adabiyotida ertak-doston janri rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. Darslik. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. –T.: Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. 216 bet.
2. Mirzayev S. XX asr O‘zbek adabiyoti. –T.: Yangi asr avlodi,2005, 422 bet.
3. Adabiyot. Umumiyo‘rtta ta’lim maktablarining 5-sinf uchun darslik. 2020. 268
4. Vohidov E. Shoiru she’ru shuur. Adabiy o‘ylar. – T.:Yangi asr avlodi,1987. 210 b



## MILLIY VALYUTAMIZNING QADRSIZLANISHINI OLDINI OLISH USULLARI

*Sobirova Nozima Normat qizi*

*Toshkent shahar TMC institute O'qituvchisi*

*Jabarov Shahriyor Xayrullo o'g'li*

*Toshkent shahar TMC institute Iqtisodiyot yo'nalishi*

### Annotatsiya

Bu maqola valyutamizning ko'p qirrali masalasiga bag'ishlangan bo'lib, uning qadirsizlanishini oldini olishga va bu muamoni tahlil qilishni taklif etadi. Milliy valyutamiz qadirsizlanishi, vaqt o'tishi bilan milliy valyutani mustahkamlash, pul birligini barqarorlashtirish va pul muomalasini tartibga solish maqsadida davlat tomonidan mamlakat pul tizimini to'liq yoki qisman qayta tashkil etish. Pul islohotlari mamlakatdagi iqtisodiy holatga, pulning qadr-sizlanish darajasiga va davlatning siyosatiga bog'liq holda turli usullar-da: ortiqcha qog'oz pullarni yo'q qilish yo'li bilan pul hajmini kamaytirish. Pul- kredit, muomilaga ortiqcha pul chiqadigan kanallar, konvertatsiya muammosi, davlat byudjeti defetsetini, markaziy bank vositalari orqali biz ushbu iqtisodiy muommolarni hal qilish usullari haqida tushuncha beramiz. Maqolada ushbu strategiyalarning natijalari haqida muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar** Markaziy bank, davlat byudjeti defetseti, konvertatsiya muammosi, pul- kredit siyosati, muomalaga ortiqcha pul chiqadigan kanallar, eksport-import,

### Krish

Valyuta mamlakat pul birligi bo'lib davlat va jamiyat hayotida juda katta ahamiyatga ega. O'zbek so'mi 1994-yilda ishlab chiqilgan bo'lib 29-yil ichida so'm shu darajada qadirsizlandiki hozirgi kunga kelib 1 dollar 12 300ga teng ekanligini ko'rish mumkin. Ushbu maqola o'zbek so'mni qadirsizlanishini oldini olishga qaratilgan bo'lib va bunga erishish uchun siyosatchilar tomonidan qo'llaniladigan turli strategiyalarning samaradorligini o'rganamiz. Inflyatsiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiladi, chunki u bozor iqtisodiyoti a'zolarining raqobatbardoshligini buzadi, milliy daromadning monopolist korxonalar va davlat foydasiga qayta taqsimlanishiga, bundan tashqari yashirin iqtisodiyotga shu bilan bir qatorda ish haqi va pensiyalarning qisqarishiga olib keladi, tabaqalanishni kuchaytiradi. jamiyatning iqtisodiy jihatdan rivojlangan ko'plab mamlakatlar, O'zbekistonda ham farqli o'laroq, bu qarorning so'roq ostida qolayotgani sezilarli darajada pasaygan hammaga ma'lum. Inflyatsiya zamonaviy makroiqtisodiy muammolardan biridir. Chunki u o'zining muhim o'rnnini egalladi, yana uning ko'rsatkichlari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari dunyoning barcha mamlakatlari,



xususan, Rossiyaning iqtisodiy xavfsizligini baholashda jiddiy rol o'yinaydi. Inflyatsiyaning mohiyati, rivojlanish mexanizmlari, va uning xususiyatlari va aksilflyatsion siyosatning asosiy yo'nalishlarini oydinlashtirishning ahamiyati ushbu masalani muhokama qilishning dolzarbligini asoslaydi.

### Adabiyot tahlili

Pulning qadirsizlanishi- tovar-pul muvozanatining buzilishi natijasida muomilada xo'jalik aylanmasi ehtiyojlaridan ortiq darajada qog'oz pullar miqdorining ko'payib ketishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi. Birinchi galda sifati yaxshilanmagan holda tovarlar va xizmatlar narxining ko'tarilishi ko'rinishida, shuningdek, oltin va chet el valyutasining milliy valyutaga nisbatan qimmatlashishi shaklida yuz beradi. Tovar ishlab chiqarishning to'lov qobiliyatiga ega talab o'sishidan ortda qolishi, bozorda talabga javob bermaydigan tovarlarning ko'payib ketishi, byudjet kamomadlarini qoplash uchun qo'shimcha pul emissiya hisobidan moliyalashtirish, monopol narxning mavjudligi, narxni oshib ketishidan hadiksirab tovarlarini keragidan ortiq xarid etish, mamlakatga qadirsizlangan chet el valyutasining ko'plab kirib kelishi va bosha omillar yuzaga keltiradi.

Bu faqat pul bilan bog'liq hodisa emas, balki iqtisodiyot yuksalganda qisqaradigan, tushkunlik paytida kuchayadigan iqtisodiy holat mahsulidir. Inflyatsiya davrida baholarning oshishi doim bir xil emas ba'zidan o'zgarib turadigan ham bo'lisi mumkin. Lekin ba'zi tovarlar bahosining tushishi yoki barqaror bo'lib turishini yigirma birinchi asrning inflyatsiyasi uchun mos deb ishonch bilan afsuski ayta olmaymiz. Ba'zida davlat aralashuvi bilan aholi iste'moli uchun bo'lgan zarur bo'lgan ayrim tovarlar bahosining ma'lum davrda barqaror ushlab turish mumkin, ammo inflyatsiyaning kuchayib borishi shu tovarlar baholarining ham oxiri oshishiga olib keladi.

### Usullari

#### Muomalaga ortiqcha pul chiqadigan kanallar

- Tabiiy monopolyalar xizmatlari va maxsulotlari oshishi (gaz, elektr energiya, yoqilg'i) yoqilg'i, elektr energetika resurslari oshsa muomalaga ortiqcha pul chiqadi tovarlar bilan ta'minlanmagan chunki benzin 800 so'm bo'lganda ham minadi mashinani, 8000 so'm bo'lganda ham minadi. Qachon narxlar oshsa, shu oshgan narxga xizmat qiladigan qo'shimcha pul chiqadi.

- Biz uzoq yillar davomida markaziy bank mustaqiliginini taminlay olmadik. Masalan davlat bujetiga mablag' yetmay qolsa, markaziy bankdan kredit olib yopamiz. Qachonki markaziy bankdan kredit olib davlat bujeti xarajatlari yopilsa muomalaga tovarlar bilan taminlanmagan pullar chiqadi.

- Bizda juda katta kreditlar qaytmadi, bu qaytmagani uchun shunga sabab bo'lgan shaxslar jazolanmadidi. Chunki o'zbekiston moliya qonunchiligidagi aybdorni topishni

iloji yo'q edi. Ayibdor birinchi martda ikkinchi president tomonidan 2017-yil 12-sentiyabrdagi 32-72 qarorida topildi, endi qaysi innovatsion loyiha barbot bo'lsa, shu loyiha qaysi vazirlikda yuz bersa o'sha javob beradi, agar vazirligidagi loyiha barbot bo'lsa vazir javob beradi, davlat qo'mitasidagi loyiha barbot bo'lsa qo'mita rahbari javob beradi.

- Naqt pullarning bankdan tashqari aylanmasi kuchayib ketdi.
- Talab inflyatsiyasi kuchayib ketdi, to'siq qo'yolmadik.

### Eksport – import

• Tashqi savdo balansi muvozanatini ta'minlay olmadik, su'niy yo'lar bilan ta'minlaydi buni ishlayotganlarni o'zi yaxshi biladi, qanday qiladi yangi yil oldi mashinalar yuk bilan kelyabdi kiritmay turiladi yangi yil kirgandan keyin kiritiladi chunki oldin kirsa tamoshni bazasida ko'rindi import ko'payadi, byudjet ham shunday mo'jalangan xarajatni bermay byudjetni prafiset qilamiz. Demak byudjet xarajatini moliyalashtirmay profiset qiladi yana uyalmay yozib qo'yadi o'tgan yil davlat byudjeti profisi YIM ga nisbatan 0.1 %tashkil qildi deb qo'yadi.

### Konvertatsiya muamosi

• Tadbirkorlar joriy xisob raqamida so'm bor lekin dolir sotib ololmaydi birjadan, so'mi bor investitsiyaolib kelolmaydi uskunani chunki konvertatsiya yo'q. Shu yo'l orqali juda ko'p tadbirkorlik subyektlarini ichki bozorni to'ldirish imkoniyatidan maxrum qildi. Agar konvertatsiya qilib berilganda ichki bozor to'lardi ham eksport oshardi. Juda ko'p tadbirkorlar shunda sinib ketdi.

• Qaysi mamlakatda milliy valyuta barqarorligini markaziy bank ta'minlay olmasa margaziy bank rahbarini bo'shatish kerak. 1982-yilda Meksikada, 1996-yilda Rossiya, 2000-yil Argentinada.

### Fridrix hayekning pul islohati bo'yicha kitobidagi uchta sharti

Qaysi davlatda valyuta qadirsizlansa, o'sha qadirsizlangan davlat valyutani almashtirishida uchta narsa bo'lishi kerak.

- Sanoat ishlab chiqarish kamida yilliga 25% tashkil qilishi kerak.
- Muomalaga ortiqcha pul chiqadigan kanallarni yopish kerak.
- Hukumat davlat byudjet xarajatlarini o'zini soliqlari tushumidan yopolmagan payt, markaziy bankdan kredit olib yopish imkoniyatiga ega bo'lmasligi kerak.

Shu uchta shart pul almashturish paytida bo'lishi shart.

### Muhokama

Inflyatsiyani boshqarish masalalarini iqtisodiy siyosatdagi eng murakkab masalalardan biri deb atash mumkin. Zamonaviy dunyodagi inflyatsiya darajasidagi ta'sir qilishining turi usullari mavjud. Avvalo, o'tgan yillarni tahlil qilish, statistik faktlar va ular qanday oqibatlarga olib kelishini o'rganishimiz va sintez qilish kerak. Yuqorida aytilgan markaziy bankning mustaqiliginini ta'minlashimiz kerak, import qaramlikni kamaytirish, va ortiqcha pul chiqadigan kanallarni yopish, masalan import



masalasiga to'xtalsak. Import, import qilinadigan tovarlar narxining oshishini kamaytirish uchun mamalakatimizda ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega chunki bu usulni Rossiya ham qo'llagan. O'yaymanki biz ham yuqorida aytilgan gaplarni iqtisodiyotda qo'lasak inflaytsiya muamosini yecha olamiz.

### Xulosa va takliflar

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, inflaytsiya har qanday davlat uchun xafli hisoblanadi. Hatto iqtisodiyoti jihatdan rivojlangan davlatlar uchun ham, chunki u davlatlar ham inflaytsiya davrida og'ir ahvolga tushub qolgan lekin yechim topishgan, shu sababli ham davlatlar undan qachishga harakat qilishadi va inflaytsiya davrida undan qutilishni har qanday choralarini qo'llashga harakat qiladi. Ammo hozirgi vaqtida ham yurtimizda inflaytsiya biroz past ekanligini ko'rishimiz mumkin. Lekin shuni etiborga olish kerakki inflaytsiya faqatgina davlatning yomon ahvolda ekanligini bildiribgina qolmay balki uning yaxshi holatda ekanligini ham bildirish mumkin. Albatda qanday qilib degan savol tug'ulishi mumkin, bunga javoban misol keltiradigan bo'lsak: Qирг'изистон давлатини оладиган бо'lsak u yerdagи inflaytsiyaning daroji past maxsulot ishlab chiqarishdan yoki davlat byudjeti defetsetini qoralash uchun muomalaga ko'p miqdorda pul chiqarish oqibati bo'lishi mumkin bunda inflaytsiya ta'siri yo'q. Yana biz Rossiya, Qozog'iston, Qирг'изистон va boshqa davlatlarni inflaytsiya davridagi holatini o'rganishimiz kerak. Ko'proq valyutamizni qadirsizlanishini oldini olish uchun yevropani valyutasiga qilgan ishlarini o'rganish konvertatsiya muamosi va yana bir qator savollarga javob topishimiz kerak.

### Adabiyotlar

1. "Rossiyadagi inflaytsiya", mavzusidan ilmiy maqola matni. N.V.Lipcin. A.A.Xromchenko. E.P.Xripko.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (200-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.
3. Rossiyada inflaytsiya: "Muammolar va ishlab chiqarish" mavzusidan. "Iqtisodiyot va biznes" mutaxassisligi bo'yicha ilmiy maqola matni. Ibragimov Maksim Emilevich. Rafikov Ruslan Ildarovich.
4. Pul islohati bo'yicha Amerikalik olim Fridirix hayik.
5. Inflyatsiya darajasini pasaytirish bo'yicha qo'llanilishi mumkin bo'lgan eng samarali usullar. Sobirova Nozima Normat qizi.
6. [www.Rost24.uz](http://www.Rost24.uz).
7. Инфляция в Киргизии
8. [www.google.com](http://www.google.com).
9. Инфляция в России





## «МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ»

**Нуъмонова Сайёра Учкуновна**

*Шахрисабзский государственный педагогический институт*

*Магистр первого курса, направления русский язык и  
литература в иноязычных группах.*

**Аннотация:** Один из ключевых аспектов в обучении русскому языку — это принципы обучения, которые формируют теоретическую основу для выбора конкретных методов и средств обучения. Общедидактические принципы, такие как принцип дидактики, принцип систематического обучения, принцип доступности, принцип наглядности и другие, определяют общие подходы к преподаванию языка.

**Izoh:** Rus tilini o'qitishning asosiy jihatlaridan biri - o'qitishning aniq usullari va vositalarini tanlashning nazariy asosini tashkil etuvchi o'qitish tamoyillari. Didaktika printsipi, tizimli o'qitish printsipi, mavjudlik printsipi, ko'rish printsipi va boshqalar kabi umumiy didaktik tamoyillar til o'qitishga umumiy yondashuvlarni belgilaydi.

**annotation:** One of the key aspects in teaching the Russian language is the principles of teaching, which form the theoretical basis for choosing specific methods and means of teaching. General didactic principles, such as the principle of didactics, the principle of systematic teaching, the principle of accessibility, the principle of visibility and others, determine general approaches to language teaching.

**Ключевые слова:** метод, дидактика, принцип, морфология, языковедения, перечень, наглядность, иллюстрация ,демонстрация, общедидактические принципы.

**Tayanch so`zlar:** metod, didaktika, tamoyil, morfologiya, tilshunoslik, ro`yxat, ravshanlik, illyustratsiya, ko`rgazmalilik, umumiy didaktik tamoyillar.

**Key words:** method, didactics, principle, morphology, linguistics, list, clarity, illustration, demonstration, general didactic principles.

К знаниям о языке и речи относятся понятия из различных областей языковедения: фонетики, лексики, словообразования, морфологии, синтаксиса, лингвистики текста, стилистики. Кроме того, это включает классификацию понятий, нормы и правила языка, а также перечни фактов языка, не укладывающихся в нормы и не подчиняющихся правилам.

Перейдём к рассмотрению методов обучения русскому языку.

Методы обучения русскому языку — это систематизированные приемы и действия, направленные на достижение конкретных образовательных целей. В



процессе преподавания русского языка существует несколько типов методов, которые обеспечивают эффективное освоение языковых структур и навыков. Один из ключевых аспектов в обучении русскому языку — это принципы обучения, которые формируют теоретическую основу для выбора конкретных методов и средств обучения. Общедидактические принципы, такие как принцип дидактики, принцип систематического обучения, принцип доступности, принцип наглядности и другие, определяют общие подходы к преподаванию языка. Специализированные принципы обучения русскому языку включают в себя внимание к материи языка, понимание лексических и грамматических значений, оценку выразительности речи, развитие чувства языка и опережающее усвоение устной речи перед письменной.

Переходя к методам обучения, следует выделить разнообразные подходы к обучению русскому языку. К ним относятся:

1. Практические методы: включают в себя проведение опытов, выполнение упражнений, а также учебную практику. Эти методы направлены на формирование практических навыков использования языка в реальных ситуациях.

2. Наглядные методы: охватывают использование иллюстраций, демонстраций и наблюдений. Эти методы способствуют визуализации языковых явлений и улучшают понимание структуры языка.

3. Словесные методы: включают в себя объяснение, рассказ, беседу, инструктаж, лекции и дискуссии. Эти методы направлены на развитие навыков общения и понимания языковых конструкций.

4. Работа с книгой: включает чтение, конспектирование, цитирование, составление планов и рефериование. Эти методы способствуют развитию навыков работы с текстами и углубленного анализа.

5. Видеометоды: включают просмотр видеороликов и использование обучающих материалов через интернет. Эти методы акцентируют внимание на визуальном восприятии и обогащают уроки языка мультимедийными ресурсами.

Все эти методы могут быть успешно интегрированы в учебный процесс на уроках русского языка, обеспечивая эффективное и интересное обучение студентов. Компонентом структуры содержания являются умения и навыки. Умение представляет собой способность осуществлять действия эффективным и рациональным образом, базируясь на знаниях. Умение всегда вытекает из знаний и претворяет их в действие, таким образом, являясь "знанием в действии". В рамках изучения русского языка формируются разнообразные умения и навыки, что подчеркивает практическую направленность обучения. Помимо общедидактических умений, которые студенты приобретают при изучении

различных предметов, на уроках родного языка формируются специфические умения и навыки.

К знаниям о способах учебных действий относятся схемы разбора различных языковых аспектов, образцы предписаний, фиксирующих последовательность операций при выполнении учебных действий, а также памятки, направленные на развитие учебных навыков.

Разнообразные умения и навыки формируются в результате упражнений, превращаясь в автоматизированные действия. В курсе русского языка разрабатываются как общедидактические умения, такие как умение сравнивать и обобщать, так и специализированные, включая учебно-познавательные и коммуникативные умения.

Учебно-познавательные умения включают в себя разнообразные умственные действия, например различие ударных и безударных слогов, подбор синонимов, анализ частей речи, определение темы и основной мысли текста. Коммуникативные умения и навыки включают в себя соблюдение норм литературного языка и создание связных высказываний как в устной, так и в письменной форме. Когда речь заходит о методах обучения русскому языку, первым шагом стоит упомянуть об общедидактических принципах методики преподавания данного предмета. Принципы обучения русскому языку представляют собой теоретические основы, которые определяют выбор методов, приёмов и других средств обучения. К ним относятся:

**Принцип дидактики:** сфокусирован на создании условий для эффективного усвоения знаний и развития умений и навыков.

**Принцип воспитательного обучения:** ориентирован на формирование у студентов ценностных ориентаций, этических принципов и культурного поведения. **Принцип научности:** подразумевает строгое соблюдение научных данных и закономерностей в обучении русскому языку.

**Принцип систематического обучения:** предполагает последовательное и целенаправленное введение учебного материала.

**Принцип доступности:** направлен на создание условий, при которых каждый студент может успешно освоить языковые структуры и правила.

**Принцип наглядности:** предполагает использование визуальных средств и материалов для более наглядного представления учебного материала.

**Принцип сознательности и активности учащихся в обучении:** ставит перед собой задачу развивать у студентов самостоятельность и активное участие в учебном процессе. **Принцип прогнозируемости:** ориентирован на способность студентов предвидеть и понимать языковые структуры и явления.

**Принцип индивидуального обучения:** предполагает учёт индивидуальных особенностей и потребностей студентов при организации учебного процесса.

Принцип связи теории с практикой: направлен на развитие у студентов умения применять полученные знания и навыки на практике.

Методы обучения русскому языку разделяются на несколько категорий:

1. Метод сообщения знаний в готовом виде (или догматический) ориентирован на пассивную деятельность учащихся. Знания представляются ученикам в готовом виде, и их задача заключается в восприятии и запоминании. Этот метод может применяться в форме устного сообщения учителя или в виде текста в учебнике. Вводимый материал обычно не требует осмыслиения, а лишь запоминания, такие как списки слов с непроверяемыми орфограммами, прямые орографические правила и др.

2. Метод объяснения нового материала также базируется на пассивной деятельности учащихся, но отличается тем, что включает элементы проблемного изложения. Учитель или автор учебника предоставляет знания в готовом виде, но при этом использует рассуждения, чтобы объяснить новые понятия или правила. Этот метод активизирует мышление учащихся, заставляя их следить за логикой изложения и воспринимать весь ход рассуждений. Метод объяснения целесообразен при сложном материале или там, где требуется логическая аргументация, которой учащиеся еще не овладели.

3. Проблемно-поисковый метод предполагает активное участие учащихся в поиске решения проблемы или ответа на вопрос. Учитель ставит перед учениками конкретную задачу, требующую активной мыслительной деятельности и поиска информации. Этот метод способствует развитию аналитических и критических умений, а также формирует у учеников навыки самостоятельного поиска и обработки информации.

4. Интерактивные методы обучения включают в себя различные формы взаимодействия между учениками и учителем, а также между самими учениками. К ним относятся методы групповой работы, дискуссии, проектная деятельность. Интерактивные методы способствуют развитию коммуникативных навыков, сотрудничества и обмена знаний.

5. Практические методы ориентированы на освоение учащимися практических навыков. К ним относятся различные виды тренингов, симуляции, ролевые игры. Эти методы позволяют закрепить теоретические знания на практике и развивают у учеников практическое применение полученных знаний.

6. Игровые методы предполагают использование игр как средства обучения. Игры способствуют активизации учебной деятельности, развитию логического мышления, обучению в игровой форме.

Выбор определенного метода зависит от целей урока, особенностей учебной группы и предмета обучения. Комбинация различных методов может

эффективно сбалансировать процесс обучения, делая его интересным и продуктивным для учащихся.

Метод эвристической беседы, или метод наблюдения над языком, взаимодействует как с рецептивной, так и с продуктивной активностью учащихся. Его суть заключается в том, что, руководствуясь вопросами учителя, ученики приходят к необходимым выводам, наблюдая за специально подобранными примерами. Этот метод широко применяется на уроках русского языка для формирования знаний, так как он лучше всего соответствует характеру языкового материала и задачам развития мышления школьников. Для полного освоения абстрактных языковых понятий и правил ученик должен совершить часть абстрагирующей работы, результаты которой отразились в языке. Переход от конкретных фактов языка к абстрактным понятиям способствует развитию индуктивного мышления, обучает учеников сравнивать и сопоставлять факты языка, выделять существенные свойства, устанавливать связи между явлениями и делать правильные выводы.

### Литература:

1. Блинов Г.И. Методика изучения пунктуации в школе. – М.: Просвещение, 1990.
2. Валгина Н.С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации. – М.: Высшая школа, 2004.
3. Казакова В. Н., Казаков Ю. А. Методика преподавания русского языка для ССУЗов [электронный ресурс: [https://thelib.ru/books/v\\_n\\_kazakova/metodika\\_prepodavaniya\\_russkogo\\_yazyka\\_dl\\_ya\\_ssuzov-read.html](https://thelib.ru/books/v_n_kazakova/metodika_prepodavaniya_russkogo_yazyka_dl_ya_ssuzov-read.html) ]
4. Клёкина, Е.А. Методы лингвистических исследований. [электронный ресурс: [https://spravochnick.ru/yazykoznanie\\_i\\_filologiya/metody\\_lingvisticheskikh\\_i\\_ssledovaniy/](https://spravochnick.ru/yazykoznanie_i_filologiya/metody_lingvisticheskikh_i_ssledovaniy/) ]



## AYOLLAR XALATINI BICHISH VA TIKISH

Mirg'aniyeva Sadoqat

Kosonsoy tuman 1-son kasb-hunar maktabi  
ishlab chiqarish ta'lifi ustasi

**Aannotatsiya:** ushbu maqolada ayollar xalatini bichish, bo'laklarni to'g'ri joylashtirish va yig'ish usullari xususidagi fikrlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** sun'iy shoyi, velyur paxmoq, ort va old bo'lak, yeng, rel'ef, andoza.

**Аннотация:** В этой статье даются идеи о способах стрижки женского платья, правильном размещении и сборке деталей.

**Ключевые слова:** искусственный шелк, велюровый пух, задняя и передняя часть, рукав, рельеф, шаблон.

**Annotation:** this article gives you ideas on how to wring a women's robe, correctly place pieces and assemble them.

**Keywords:** artificial silk, velyur fluff, ort and front piece, sleeve, relief, template.

## KIRISH

Xalat-ayollarga uy ishlari va dam olish uchun xizmat qiladi. Bichimining soddaligi, kiyishda qulayligi gigienikligi. barcha uy kiyimlari uchun xarakterli bo'lgan xususiyatlardir. Utilitar va funkitsonal xususiyatlari o'z ichiga olgan uy kiyimi ayollar uchun qulaylik tug'dirishi va shu bilan birga zamonaviy bo'lishi kerak. Xalat uchun paxta tolali gazlamalar sun'iy shoyi, velyur paxmoq kabi gazlamalar tavsiya etiladi. Ayollar xalati yeng, yoqa bichimlarining turlicha bo'lisi, formasining turli bo'lisi bilan ajralib turadi. Tavsiya etilayotgan ayollar xalati sun'iy shoyi gazlamadan tikilib, yopishib turadigan formali, pidjak tipidagi dumaloq shaklli yoqali, bir qator tugmaga taqiladi, yengi biriktirma, yeng bilakkacha uzunligining  $4|3$  bo'lagi uzunlikda, tirsakdan etakkacha kengaytirilgan. Xalat old va ort bo'laklari yeng o'mizidan etak chizig'igacha rel'ef choki tushirilgan, old bo'lak o'ng yon qismida qoplama cho'ntak tikilgan.

Andozalarni gazlama ustiga qo'yish hamda kiyimni bichish texnik talablarga muvofiq bajarilishi lozim. Tayyor kiyimning sifati bichish vaqtida andozalarning gazlama ustiga texnik talablarga muvofiq, to'g'ri qo'yilishiga ko'p jihatdan bog'liq. Tukli gazlamalar, shuningdek, har xil tusdagi gazlamalardan kiyim bichish vaqtida asosiy gazlamadan tikiladigan bo'laklarning barcha andozalari (adip va ostki yoqalar bundan mustasno) bir tomonga qaratilishi kerak. Kiyim, duxoba, baxmal, nimbaxmal, chiyduxobadan bichilayotganda andozani gazlama tuki pastdan yuqoriga qarab





turadigan qilib joylash kerak. Shunda tayyor kiyimning materiali yaltirab turmaydi. Gullari har tomonga qaratilgan gazlamalarda andozalarni gazlama gullari pastdan yuqoriga yoki aksincha, yuqoridan pastga qarab turadigan qilib joylash tavsiya etiladi.

### ASOSIY QISM

Bayka, flanel, movut (drap, sukio) kabi tukli materiallar, paxta ipi, vagon ip, melanj ipdan to'qilgan materiallardan, zamsha va chiyduxobadan kiyim bichishda andozalarni tuklar pastdan yuqoriga qarab turadigan qilib joylash kerak, shunda kiyimning materiali ortiqcha paxmoqlanmaydi. Umuman, andozaning joylanishi material tukining uzun-qisqaligi va mayin dag'alligiga bog'liq. Xullas, uzun tukli materialda tuklar yuqoridan pastga, qisqa tukli materiallarda pastdan yuqoriga yo'nalgan bo'ladi. Tuklar ko'zga arang chalinadigan materialdan tikiladigan kiyimni bichganda hamma bo'laklarda material tuklarining bir yo'nalishda joylashgan bo'lishiga e'tibor berish kerak. Agar gazlama ustiga ikki kiyimning andozalarini bir yo'la joylashtirishga to'g'ri kelsa, u holda bir kiyimning jami bo'laklarida gazlama tuklari bir tomonga, ikkinchi komplektda esa boshqa tomonga qaratilishi lozim. Xol-xol gulli (xollar yirik bo'lsa) yoki yo'l-yo'l gazlamadan kiyim bichishda va tikishda kiyim orqasi va oldining o'rta chizig'i gulning qoq o'rtasiga to'g'ri keltirilishi lozim. Yo'l-yo'l va katak gazlama ustiga andozalarni joylayotganda ayrim bo'laklarning chetlaridagi, chunonchi: kiyimning oldida-bortlar chetidagi, kiyim orqasida-o'rta chiziqlardagi podbortlarda-yoqa qaytarmalarining tashqi zihlaridagi, cho'ntaklar, cho'ntak qopqoqlari, ko'krak cho'ntagi (listochki), yoqa, xlyastik, old va orqa koketkalardagi (skladka yoki vitochkagacha) yo'llarning yoxud kataklarning bir-biriga mos holda to'g'ri keltirilishiga alohida e'tibor berish kerak. Kiyimning mazkur bo'laklarini bichayotganda gazlamaning gullarini bir-biriga to'g'ri keltirish uchun undagi takrorlanadigan gulning kattaligida yoki to'la kattaligida chok haqi tashlab ketiladi va podbortlarni bichayotganda chok haqqi tashlab ketilmaydi, balki bu bo'laklar gazlamaning chetiga yaqinroq joylashtiriladi. Gazlamaning takrorlanadigan gullari yirik bo'lganda ham shunday talablar qo'yiladi. Belbog'li va yelkasi yostiqchali kiyimlarda chok haqqi gazlamaning ko'ndalang joylashgan yirik yo'llari yon choklarda bir-biriga to'g'ri kelishini, yoqaning har ikkala uchida hamda yoqa qaytarmalarida esa simmetrik joylashuvini ta'minlamog'i lozim. Kiyim bo'laklarini bichganda hamma bo'laklarning chetlarida andozadan ozgina bo'lsa-da chetga chiqilishini nazarda tutish kerak. Lekin bu chetga chiqishlar quyida ko'rsatilgan darajadan ziyod bo'lmasligi lozim: Asosiy materialdan bichilgan bo'laklarning chetlari (elka chizig'i, yeng o'mizi, yeng boshi va hokazo) da □1,0-0,15 sm; Asosiy material va astarbop gazlamadan bichilgan bo'laklar chetida (bortlar, zihida, old yon chiziqlarda, yengning tirsak to'g'risidagi va oldingi zihlarida, yoqalar va qoplama cho'ntaklarning chetlarida va hokazo) □0,15-2 sm;



Turli oraliq bo'laklar, kiyimning old va orqa etaklari (avrasi va astari) da va hokazolarda 0,25-0,3 sm; Kertiklarning o'lchamlarida va bir-biriga nisbatan joylashuvida 0,2 sm. Sidirg'a rang, yo'l-yo'l yoki katak (tuksiz) gazlamadan kiyim bichishda (agar kataklar, gullar simmetrik joylashgan bo'lsa) bo'laklarning andozalarini qarama-qarshi yo'nalishda joylashga yo'l qo'yiladi. Gullari nosimmetrik, shuningdek, ma'lum yo'nalishda joylashgan gazlamada bir kiyimning hamma bo'laklar andozasi bir tomonga qaratib qo'yiladi. Andozani eng ko'pi bilan 0,2 sm chetga chiqishga yo'l qo'yiladigan bo'laklarni bichish vaqtida ularning andozalari oralarida kamida 0,1-0,15 sm qoldirib joylash lozim. Materialning qiymati tayyor kiyim tannarxining 80-90% ni tashkil etadi; shunga ko'ra kiyim bichishda materialni tejab-tergashning katta ahamiyati bor. Material ustiga andozalarni joylashdagi tejamkorlik qiyqim chiqishiga qarab belgilanadi: yaroqsiz qiyqimlarning ko'p-oz chiqishi turli omillarga bog'liq; gazlamaning eni va turi, joylashgan bo'laklarning formasi, o'lchami va soni, andozalarni joylash sxemasi, kiyimning razmeri, rosti hamda gazlama ustiga andozalarni joylash tartibi shunday omillar jumlasiga kiradi. Qirqimlarning ko'p-oz chiqishiga andozalarning joylanish tartibi ko'proq ta'sir etadi. Kiyimning asosiy bo'laklari birin-ketin bo'yiga joylashtirilsa yoki qiya zihlari bo'yicha juftlashtirilsa, andozalar oralig'idan juda oz qiyqim chiqadi.

Ayollar xalatlari har xil gazlamalardan tikiladi. Ularning ko'yakdan farqi shundaki, old bo'lagi etagigacha ochiq bo'lib oldi tugmalanadigan yoki belbog' bilan bog'lanadigan bo'ladi. Xalatning old bo'lak qismi ma'lum kenglikda bir-birining ustiga o'tib turadi. Xalatlar turli fason va bichimda tikilib yengli, yengsiz, yoqasiz, cho'ntakli bo'lishi mumkin. Xalat turli xil bezaklar qo'yma burmalar, gazlama rangiga mos qiya mag'izlar, furniturelar bilan bezatiladi. Xalatni tikish tartibi mayda bo'laklarni tayyorlashdan boshlanadi. Xalatning ostki va ustki yoqalari tayyorlanib, ag'darma chokda tikiladi. Yoqaning burchaklari texnik shartlarga ko'ra kesilib, o'ngiga ustki yoqadan ziy chiqarib ag'dariladi va dazmollanadi. Tayyor yoqa andoza yordamida tekshiriladi. Adip bo'laklari birlashtirib tikiladi. Adipga yelimli qotirmani namlangan mato yordamida dazmollab yopishtiriladi. Qoplama cho'ntak yuqori qismiga listochkani birlashtirib tikiladi, listochkani pastki qirqimlari buklab, bostirib tikiladi. Qoplama cho'ntak yon va ostki qirqimlari bo'ylab buklab dazmollanadi. Xalatning yeng qirqimlari birlashtirib tikiladi va yo'rmalanadi. Choklar bir tomonga qaratib dazmollanadi. Yeng uchi qirqimlari bukish chizig'i andoza yordamida aniqlanadi va buklab bostirib tikiladi.

Xalatning old va ort rel'ef qirqimlari birlashtirib tikiladi. Rel'ef chok qirqimlari bir tomonga qaratib dazmollanadi va yo'rmalanadi. Xalatning old bo'lak bortiga adipini ag'darma chok bilan yoqa o'tkaziladigan joydag'i kertimgacha tikiladi. Bortni pastki burchaklari etak bukish haqqi kengligida bostirib tikiladi, choklar dazmollanadi.

## XULOSA

Ayollar xalatining mayda bo'laklariga ishlov berilgandan so'ng yig'ish ishlari boshlanadi. Avval old va ort bo'laklarining yelka va yon qirqimlari birlashtirilib tikiladi va chok qirqimlari yo'rmananadi. Yoqa, yeng o'mizlari, xalat etak qismlarini tekshirib ko'rildi va tekislanadi. Yoqani yoqa o'miziga adip bilan birgalikda tikiladi. Yoqani yoqa o'miziga o'rnatilganda kertim berishni unutmaslik kerak, chunki kertim bergandan so'ng yoqa yaxshi yotadi. Yoqa tikib bo'lingandan so'ng adip o'ngiga ag'darilib, bortda ziy chiqarib dazmollanadi. Xalat etak qismi buklash chizig'idan buklab tikiladi. Xalat taqilmasida izma o'rnlari andoza yordamida belgilanadi va puxtalanadi. Tugmalar o'rni tugma o'rnnini belgilash uchun xalatni stol ustiga yozib qo'yiladi va taqilma joyidagi izmalarga moslab tugma taqish joylari belgilanadi va tugma maxsus mashinada puxtalanadi. So'ngra oxirgi ishlov beriladi va NIIB bajariladi.

### Adabiyotlar

1. Qahramon Olimov. Tikuvchilik korxonalari jihozlari va uskunalari. Darslik. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2013.
2. Q.T.Olimov. «Tikuvchilik korxonalari jihozlari». O'quv qo'llanma. Toshkent, DITAF. 2001-y
3. M.Sh. Jabborova. «Tikuvchilik texnologiyasi». «O'zbekiston», 1994-y
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/to-qimachilik/ayollar-xalatini-bichish>.



## ERKAKLAR PIDJAGI UCHUN MODEL TANLASH, BICHISH VA TIKISH

Mirg'aniyeva Sadoqat

Kosonsoy tuman1-son kasb-hunar maktabi  
*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf darslarida zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish, darslarning samaradorligini oshirishda ularning ahamiyati haqida yoritilgan. Yangicha metod, usullarning bugungi kundagi o'rni haqida ma'lumot, misollar keltirilgan. Axborot texnologiyalari bilan dars metodlarining uzviylici , samaradorligi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Dars, o'qitish metodlari, interfaol ta'lif metodlari, zamonaviy texnologiya, usul, metod.

### **Kirish:**

Bugungi kunda yurtimiz jadallik bilan har sohada rivojlanib bormoqda.Barcha sohalarning zamirida ,albatta, ta'lif yotadi.Ayniqsa, dastlabki asosiy tamaltoshini boshlang'ich ta'lif qo'yib beradi.Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan o'qituvchilarning darslarga ijodiy yondashishini ta'minlash,ular faoliyatiga ilg'or pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish hamda o'quvchilarning dastlabki bilim egallash poydevori mustahkam bo'lishi,barcha fanlarni o'zlashtirishga qiziqishini oshirish maqsadida zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib, tatbiq etib kelinmoqda. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish" konsepsiyasida asosiy yo'nalishlar belgilab qo'yilgan, jumladan:

- O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahoning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;
- Uzluksiz ta'lif tizimi mazmunini sifat jihatdan yangilash;
- O'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lif-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish.

Ulug' donishmandlardan biri "...kelajak tashvishi bilan yaxshasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit "-, degan ekan. Darhaqiqat, bu so'zlarning zamirida oldimizdagи asosiy vazifa turibdi. Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek:" Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi, bilim bor joyda buyuklik bo'ladi"

Bugungi zamon o'qituvchi va o'quvchi oldiga katta talablar qo'ymoqda, bu talablarning asosiysi-darsning samaradorligi, sifatliligi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga maktablardagi turli xil o'quv mashg'ulotlari, ularni tashkil qilinishi va



u orqali o'quvchilarni turli bilim va ko'nikmalarini egallab olishidir. Bugungi kun talabidagi darsni tashkil qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Chunki, ular orqali multimedia, animation, grafika, diafilm, video filmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo'lishiga yordam beradi.

O'qituvchi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali quyidagi bir qancha vazifalarni amalga oshirishi mumkin:

- boshlang'ich sinflarda multimedia texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarda fanga qiziqishi rivojlanadi;

- ta'limning bunday usuli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va o'quv materialini o'zlashtirilishining samaradorligi yanada oshadi;

- namoyish qilinishi qiyin yoki murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va ko'rish imkoniyatini beradi;

- o'quv materiallarini o'zlashtirilishi faqat darajasiga ko'ra emas, balki

o'quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlarining darajasiga ko'ra ham samarali hisoblanadi;

- o'quvchilarga mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob topish orqali ma'lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratiladi;

- o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma'lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratiladi. Oldingi an'anaviy dars o'tish usullarida o'quvchilar tayyor bilimlarni egallahsga o'rgatilgan bo'lsa, bugungi kunda o'quvchi zamonaviy axborot vositalari orqali ma'lumotlarni qidirish, toplash, ular bilan o'zi mustaqil tanishish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Endi savol, ana shu axborot texnologiyalari orqali o'quvchilarga qanday usullar yordamida nimalarni o'rgatish mumkin? Avvalo, o'qitish metodlar haqida, o'qitish metodlari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarni yo'nalishlarini, harakatlarini belgilaydi.Bu metodlar o'qituvchi tomonidan bilim,malaka va ko'nikmalarini o'zlashtirishi uchun qo'llanadigan usullar yig'indisini o'z ichiga oladi.Usul- ma'lum o'quv materialini o'tishda qo'llanayotgan asosiy o'qitish metodi bilan birga ikkinchi bir o'qitish metodining ayrim elementlaridan foydalanib ish ko'rish.Vosita esa o'qitish metodlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallari -asbob, qurol ,apparat va shu kabilardan foydalanish hisoblanadi.Bugungi kunda zamon talabidan kelib chiqib "o'qitish usullari" atamasining oldiga "zamonaviy "so'zini qo'yosak maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, o'qitish usullarimizni zamonaviylashtirmasak dars samaradorligi keskin tushib ketadi. Chunki, bu o'quvchilar va zamon talabini qoniqtirmaydi.

Hozirgi o'quvchilarning aqliy rivojlanishi oldingilardan ko'ra kuchli, XXI asr bolalari. Shu sababdan, oddiy metodlar bilan o'tilsa darsga bo'lgan qiziqish yo'qoladi. Hozirda "Loyihalash", "Muammoli vaziyat", "To'g'ri - noto'g'ri", "O'z -o'zini baholash", "O'qib tushunish", "Aqliy hujum", "Sinkveyn", "BBB", "Fikrlar hujumi", "Beshinchisi ortiqcha", "6x6x6", "Bahs-munozara", "Kichik guruhlarda ishlash", "Yumaloqlangan qor", "Zigzag", "Oxirgi so'zni men aytay" kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda. Bu jarayonda darsning markazida o'qituvchi emas, balki, o'quvchilar turadi. Jarayondagi o'qituvchining asosiy vazifasi shaxs rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

Yuqorida keltirilgan metodlarning samarasi haqida. "O'z-o'zini baholash" metodi, nomidan ham bilishimiz mumkinki, o'quvchini darsda o'qituvchi emas, balki o'zini-o'zi baholaydi. Metodning foydali tomonlari shundaki, vaqtin kam oladi, bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilar topshiriqlarni bajarib baholanadi. O'quvchida o'zining qanday bilimga ega ekanligini anglashiga yordam beradi va o'qituvchiga bo'lgan yomon munosablarga olib kelmaydi. O'zining xatolarini ko'zi bilan ko'rib, ularni to'g'rilashga harakat qiladi.

"Beshinchisini top" metodi. O'quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lislilarida bu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagilar amalga oshiriladi:

-o'rganilayotgan mavzuni ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalarni shakllantirish;

-hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita...) va taalluqli bo'limgan bitta tushunchaning o'rinni olishiga erishish;

-o'quvchilarga mavzuga aloqador bo'limgan bitta tushunchani aniqlash va tizimdan chiqarish topshirig'ini berish;

-o'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash, ya'ni nima uchun bir so'zni chiqarib yubordi va qolgan so'zlar bir-biri bilan qanday mantiqiy bog'langanligini bilishi zarur.

Misol uchun, so'zlar qatori: kitob, ruchka, qalam, deraza.

Ortiqcha so'z: deraza.

O'quv qurollari: kitob, ruchka, qalam.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsga qiziqtirishda yangi pedagogik texnologiyalarning ahamiyati katta bo'lib, asosan, ko'rgazmali qurollar, turli interfaol o'yinlarni pedagogik texnologiyalar asosida dars mashg'ulotlari qiziqarli va oson kechadi.

Biz qo'llayotgan zamonaviy metodlarni zamonaviy axborot vositalari bilan uyg'unlashtirsak bugungi kun talabiga to'liq javob bergan bo'ladi. Oddiy qog'ozda tarqatmali materiallar bilan ishlagandan ko'ra, ana shu materiallarni ekranda ko'rsatib,



topshiriqlarni bajartirsak, o'quvchilarda axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalari paydo bo'ladi. Bu esa ularning kelajakdagi faoliyatlari uchun katta poydevor vazifasini o'taydi. Shu bilan birgalikda ularda yakka va kichik guruhlarda ishlash, do'stlari bilan jamoa tarzida harakat qilish kompetensiyalari paydo bo'ladi. Dars qiziqarli, sifatli va unumli o'tadi, ko'proq bilim egallahsga imkoniyat paydo bo'ladi. Real voqealarga asoslangan mavzuga doir videolar qo'yib berish orqali o'quvchilarining tezroq dunyoni anglashlariga keng yo'l ochiladi.

Kompyuterning o'yin imkoniyatlaridan didaktik o'yinlar bilan birgalikda foydalanish dars jarayonini yanada osonlashtiradi. Darsda olingan bilim, ko'nikma va malakalarining katta qismi hali kichik yoshdagi o'quvchilar tomonidan sinfdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanilmaydi, ularning amaliy qiymati yo'qoladi va kuch sezilarli darajada kamayadi. Olingan bilim va ko'nikmalarni o'yin kompyuteri muhitida qo'llash ularni o'zlashtirishga va egallahsga, motivatsiyaga olib keladi. Yosh o'quvchilarining yuqori hissiylik darjasini o'quv jarayonining qat'iy doirasi bilan sezilarli darajada cheklanadi. Komyuterdagি mashg'ulotlar yuqori hissiy taranglikni qisman bartaraf etishga va o'quv jarayonini jonlantirishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish o'quvchilarini mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashlarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarining bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
2. Ismatova.Sh.B. "Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish afzalliklari". - "Science and education" scientific Journal, 2020. [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz).
3. "Tarbiya" majmua.
4. Umarova.M.R." Boshlang'ich ta'limda AKTdan foydalanish ahamiyati". –" Talqin va tadqiqotlar" ilmiy jurnali, 2022.





**TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA VA O'QUVCHILARDA MEHNAT  
TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA BUYUK ALLOMALAR  
IJODINING AHAMIYATI**

*Subanova Dilfuza Alibekova*

*Toshkent viloyati Angren shahar 8-umumiy o'rta ta'lif maktabi*

*Texnologiya fani o'qituvchisi*

Ta'lif-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo'lib yetishishi, kasb-hunar o'rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug'lash masalalariga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz. Buni biz turli davrlarda yaratilgan ta'limiylar axloqiy asarlar va xalq og'zaki ijodi namunalari topishmoq, xalq qo'shiqlari, masal, maqol, ertak va dostonlarda mehnat va kasb-hunar odobi, axloqi va qoidalarini o'zlashtirish muhim hayotiy zarurat ekanligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari "Avesto", Kaykovusning "Qobusnomasi", Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Geodeziya", "Minerologiya", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u biling", Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma'rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Bular dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridagi xalq eposlari, ertak, maqol va topishmoqlardan boshlangan. Mana shunday ertaklardan biri "Aql va boylik" ertagidir. Bunda chol to'rt o'g'liga qarata "Kim aqli va davlatmand bo'lsa, o'sha oila boshlig'i bo'lib qoladi", degan so'zlariga o'g'illaridan biri zumrad ko'zli oltin uzugi, ikkinchisi zarbof choponini, uchinchisi esa qimmatbaho kamarini ko'rsatadi. Kenja o'g'il esa otasining savoliga "Menda zumrad ko'zli uzuk ham, zarbof chopon ham, qimmatbaho kamar ham yo'q. Lekin mehnatkash qo'lim, botir yuragim, aqli boshim bor", - deydi va otasi uni oila boshlig'i qilib, uy-ro'zg'orini meros qoldiradi. Ko'rinish turibdiki, xalq bu ertak vositasida yoshlarga insonni hayotda baxtli qila oladigan narsa mehnat degan g'oyani ilgari surgan. Faqat ertaklarda emas, xalq maqollarida ham mehnatsevarlik, mehnatda hamkorlik, mehnatning insonni baxtli-saodatli qilishi ifodalangan. Daryo suvini bahor toshirar, Inson qadrini mehnat oshirar. Oltin o'tda bilinar, Odam mehnatda. Mehnatdan do'st ortar, G'iybatdan dushman. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u biling" asarida esa shahar va qishloq xalqini ijtimoiy tabaqalarga ajratib, dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar olimlar, tabirlar va boshqalar haqida so'zlab, ularning jamiyat hayotidagi o'rniga alohida to'xtalib o'tadi. Turli kasblar, ayniqsa, dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilikka oid fikrlarini bayon etadi. U dehqon, hunarmand va chorvadorlarni jamiyatning moddiy boyliklarini yaratuvchi sifatida ta'riflaydi. Masalan, alloma dehqonlar haqida: Hammasiga yeyim (va) ichimdan



halovat yetadi). Deb dehqonlar mehnatini ulug‘lash bilan birga, hunarmandlar haqida ham “juda zarur kishilardir temirchi, tikuvchi, etikdo‘z, suvchi, egarchi, toshchi, o‘qchi, kamonchilarning foydasi katta. Ularni sanay berib ko‘zim uzayib ketdi. Bu dunyoga ular yaxshilik keltiradilar, Ular juda ko‘p ajoyib narsalarni ishlaydilar”, - deb o‘zining xayrixohligini bayon etadi va hukmron doiralarga mehnatkashlar bilan munosabatda bo‘lish shartlari xususida o‘z tavsiyalarini bayon qiladi. Dehqonlarga nisbatan: (O‘zing bular bilan aralashgin, qo‘shilgin, Tilda yaxshi so‘zla, yuzingni ochiq tut). Hunarmandlarga nisbatan: (Bular ham senga kerakli kishilardir, Bularni yaqin tut, foydasi tegadi (ey) bahodir). Chorvadorlarni ham haqiqiy mehnatkash inson sifatida ulug‘lab: (Aralashgin, qo‘shilgin, yedir ham ichir, To‘g‘rilik ichra tirikchilik kechir. Nima so‘rassa bergil, kerak bo‘lsa ol Chindan ko‘rdim ushbu odamlar Hiyla-nayrangni bilmaydi(lar). Yusuf Xos Hojibning mehnat ahli haqidagi bu fikrlari haqiqatan ham ularga nisbatan hurmat va ehtiromni anglatadi. Yusuf Xos Hojibning mehnat tarbiyasiga oid progressiv qarashlari tarbiyaviy jihatdan diqqatga sazovordir. XV asrning yirik mutafakkiri Alisher Navoiyning mehnatkash insonni ulug‘lovchi, mehnat tarbiyasi haqidagi fikrlari “Hayratul abror”, “Farhod va Shirin”, “Mahbub-ul qulub” asarlari ham mavjud. Alisher Navoiyning haqiqiy inson uchun eng yaxshi fazilatlardan biri mehnatsevarlik deb ko‘rsatadi. U “Hayratul abror”ning beshinchisi maqolatida kishilarning saxovatiga ko‘z tikishdan ko‘ra o‘z qo‘li bilan hayot kechirish ulug‘roq va oliyjanobroq ekanligini “Hotam Toyi” hikoyatida keltiradi. Hotam Toyi bir kuni qo‘y-qo‘zilar so‘ydirib, xalqqa katta ziyofat beradi. So‘ng biroz dam olish uchun dalaga chiqadi. Unga yelkasida o‘tin ko‘tarib kelayotgan bir chol uchraydi. Hotam Toyi unga “Dashtda yurib bexabar qolgandirsan, tashla bu og‘ir yukni, Hotam uyiga borib ziyofatda izzat ko‘rgil”, - deydi. Shunda chol kulib: “Ey, oyog‘iga hirs band solgan, g‘ayrat vodiysiga qadam urmagan kishi, sen ham bu tikan mehnatini chekkin va Hotamning minnatidan qutulgin”, - deb javob qiladi. Hotam Toyi cholning bu so‘zlariga tan beradi va halol mehnat bilan kun kechirishi uning himmatidan baland ekanligini anglaydi. Alisher Navoiy mehnatning insonni go‘zallashtirishi, faqat mehnat tufayligina insonning kamol topishi mumkinligini ta’kidlaydi. Shu maqsadda u qator mehnatsevar badiiy obrazlarni yaratadi. Masalan, “Farhod va Shirin” dostonining asosiy qahramoni Farhod ana shunday qahramonlar jumlasidandir. Farhod Armaniston o‘lkasiga qadam qo‘yganda, o‘z yurtida Qorandan o‘rgangan tosh yo‘nish hunarini ishlatib, og‘ir mehnatdan ezilgan xalqqa yordam beradi. O‘z hunari, mehnati tufayli bir tomondan xalqning og‘ir mehnatini yengillashtirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan sevgilisi Shirinning hurmatiga sazovor bo‘ladi. Farhodning mehnatsevar va ijodkorligidan ilhomlangan Alisher Navoiy o‘z dostonining ikkinchi nomini “Mehmonnomma” deb ataydi. Mehnatga muhabbat, ijodkorlik dostonning markaziy masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Navoiy “Mahbub-ul qulub” asarida esa turli ijtimoiy guruhlarning hayotidagi o‘rnini belgilaydi, fazilat va nuqsonlarini ko‘rsatadi.

Dehqonlar to‘g‘risida fikr yuritar ekan, “Dehqonki dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo‘lin ochar. Olam ma’murlig‘i alardin va olam ahli masrurlig‘i alardin. Har qayonki, qilsalar harakat, elga ham qut yetkur, ham barakot”, -deb dehqonlarni, ya’ni, mehnatkash insonni ulug‘laydi. Shu bilan birga shoir bu asarida tekinxo‘rlarni, nojo‘ya ish tutuvchi kishilarni, ochko‘z va ta‘magirlarni, mehnat qilmay hayot kechiruvchi shaxslarni tanqid qiladi. Ma‘rifatparvar shoir Furqat ham o‘zining ma‘rifiy she’rlarida ilm, hunar haqida fikr yuritar ekan, har bir sog‘lom fikrlovchi insonni hunar egallashga da’vat etadi, hunarga mehr qo‘ygan, uni o‘rganishni da’vat etgan kishining jahonda qadri baland b‘lajagini uqtiradi<sup>4</sup>. Pedagog shoir H.H.Niyoziy esa maktab yoshlarni ilmli, odobli qilib tarbiyalashi va hunarga o‘rgatishi kerak, - deb ta’kidlagan ekan, yoshlar ma’naviy fazilatlarining shakllanishida mehnatning rolini yuqori baholaydi. She’rlarida bolalarni ota-onalarining mehnati qadriga yetishga undaydi. Hamza Hakimzoda Niyoziy yoshlikda ilm olishning ahamiyati haqida gapirar ekan, “O‘qi”, “Kitob”, “Qalam” kabi she’rlarida ilmni mehnatsiz egallab bo‘lmasligi to‘g‘risidagi g‘oyani ilgari suradi. U yoshlarga kelajakda o‘z orzulariga yetishish, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan mehnat qilish zarurligini ta’kidlaydi. Yuqoridagi fikrlar o‘quvchi-yoshlarning mehnat tarbiyasida muhim vosita sanaladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Azizzo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: 2003, TDPU, - 174 bet.
2. Avliyaqulov N.X., Musaev N.N. Pedagogik texnologiya: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / a-Toshkent: Cho Mpon NMU, 2012.208 b.
3. Anfimova N.A., Zaxarova T.I., Totorskaya L.A “Pazandachilik” Toshkent “O‘qituvchi” 1993, 246 b. 374
4. Abduqodirov G‘.M.. Kasb ta’limi praktikumi. -T.: - Sharq 2012.
5. Abduqodirov A.A., Xayitov A.G., Shodihev R.R. Axborot texnologiyalari Toshkent-2002 yil.

## НЕВИДИМЫЕ РАССКАЗЧИКИ; РОЛЬ ПЕРЕВОДЧИКОВ В ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

*Абдихамирова Севинч Обиджон кизи*

2 курс, Факультет английской филологии и переводоведения

Самаркандинский государственный институт иностранных языков

Самарканд/Узбекистан

**Аннотация:** Роль переводчиков в детской литературе является важнейшим и часто упускаемым из виду аспектом обеспечения доступности разнообразных и богатых в культурном отношении историй для юных читателей во всем мире. В этой статье исследуется важность переводчиков как культурных посредников, их влияние на то, как воспринимается и понимается детская литература, а также трудности, с которыми они сталкиваются при сохранении сути оригинального текста и одновременном обеспечении его доступности для новой аудитории. Кроме того, в нем рассматриваются культурные ценности, этический и творческий выбор, связанные с переводом детской литературы, подчеркивая необходимость признать и оценить ценный вклад этих невидимых рассказчиков.

**Ключевые слова:** *Перевод, детская и взрослая литература, проблемы, культурные ценности.*

Перевод представляет собой множество проблем, будь то взрослая или детская литература. Кроме того, может быть сложно провести четкую грань между трудностями перевода книг для детей и взрослых. На самом деле, перевод для детей сопряжен с теми же, даже более серьезными проблемами, чем перевод для взрослых, и стратегии, используемые для решения проблем перевода, возникающих при переводе литературы для взрослых, не всегда приемлемы при переводе для детей. Так почему же переводчики сталкиваются с большими трудностями при переводе детской литературы по сравнению с литературой для взрослых? Прежде всего, чтобы найти ответы на эти вопросы, нам следует знать определение детской литературы и чем она отличается от литературы для взрослых.

Детская литература — это письменные и иллюстрированные произведения, специально созданные для детей, обычно от младенчества до подросткового возраста. Этот жанр охватывает широкий спектр форм, включая книжки с картинками, главы, романы для среднего класса и литературу для молодежи. Он часто содержит темы и темы, которые актуальны и понятны детям, например, дружба, воображение и преодоление трудностей. Она также имеет тенденцию иметь более простой и доступный стиль письма по сравнению с литературой для

взрослых, поскольку ее цель – привлечь и увлечь юных читателей. Кроме того, детская литература часто включает моральные уроки или послания, но они обычно передаются тонким и косвенным образом, что позволяет детям интерпретировать и понимать их по-своему. Он также часто включает в себя элементы фэнтези и волшебства, позволяя юным читателям исследовать творческие миры и расширять свои творческие способности. В целом детская литература имеет свои уникальные особенности и служит определенной цели – воспитанию любви к чтению и рассказыванию историй у юной аудитории. Это важный и ценный жанр, играющий значительную роль в литературном мире.

Перевод детской литературы — благодарная, но очень сложная задача, поскольку она требует уникального набора навыков, выходящих за рамки простого знания языков. Прежде всего общаться с читателем-ребенком — значит вступить в воображаемую беседу с читателями более свежими и увлеченными, чем взрослые. По этой причине переводчики всегда стремятся воссоединиться со своим детским опытом во время перевода. Что делает их работу более сложной, так это необходимость подходить к ней, учитывая точку зрения детей и видя историю их глазами. Вот почему их основная обязанность — ориентировать свои книги на молодых читателей и обеспечивать их привлечение аудитории. Во-вторых, переводчикам необходимо хорошо понимать когнитивное и эмоциональное развитие детей разного возраста. Это поможет им выбрать правильный язык, стиль и содержание для конкретной возрастной группы, для которой они переводят. Наконец, они должны учитывать культурные особенности и полностью осознавать социальные и исторические предпосылки, которые могут различаться между исходным текстом и целевой аудиторией.

Многие исследователи детской литературы исследовали неравную власть между взрослыми (создателями) и детьми (реципиентами). Очевидно, что в социальном, экономическом и физическом плане взрослые обладают большей властью, чем дети. Именно они производят книги для детей, а также приобретают их для детей. Кроме того, обычно взрослые читают книги детям вслух. Когда дело доходит до переводов детской литературы, на сцену выходит еще один влиятельный взрослый: переводчик. Хотя переводчики должны переводить детскую литературу, очевидно, что ее переводят и покупают переводы для детей взрослые. Вот почему переводчики играют решающую роль в принятии от их имени решений относительно того, какие истории для них писать, являются ли элементы подходящими или нет с точки зрения контекста и стиля.

Кроме того, переводчики играют важную роль, помогая целевой аудитории приобретать культуру, развивать язык и культурные ценности посредством своих переводов. Неоспоримым фактом является то, что литература для детей

может играть огромную роль в формировании культурных ценностей и служит образовательной цели. Вот почему очень важно передавать сообщения, чтобы научить маленьких детей моральным ценностям и тому, что хорошо, а что плохо. Однако создание детских книг исключительно в педагогических целях представляет собой авторитарный подход, который может привести к потере художественного удовольствия. Цель состоит в том, чтобы перевести произведения, которые отражают реальность молодых людей и позволяют им усваивать предполагаемые образовательные послания, не навязывая их; но в то же время переводчики должны понимать, что основная цель детской литературы – доставлять удовольствие, а не просто обучать, поскольку целевая аудитория включает детей и молодежь.

В заключение отметим, что признание вклада переводчиков в детскую литературу очень важно, поскольку они достоверно и увлекательно передают детям истории из разных уголков мира. Оценивая работу переводчиков, мы можем способствовать постоянному обогащению детской литературы широким спектром мнений и точек зрения. Поскольку культура начинается с ребенка, детская литература занимает значительное место в формировании культурных ценностей. Мы всегда должны помнить, что оценка детской литературы эквивалентна оценке всей литературы, а проявление интереса к сегодняшним детям — это инвестиция в будущие поколения.

#### Список использованной литературы:

1. Gillian Lathey. (2010). The role of translators in children`s literature. (241 p). London and New York: Routledge.
2. Luc van Doorslaer & Haidee Kotze. (2020). Children’s literature in translation (280 p). Leuven University Press
3. Kateřina Frimmelová. (2010). Translating children`s literature. (102 p). Masaryk university.
4. Ms. Nedjah Mimouna & Ms. Sammoudi Ines. (2020). Translating Children’s Literature: between Social Challenges and Cultural Discovery. (65 p). People’s Democratic Republic of Algeria Ministry of Higher Education and Scientific Research.
5. Abdikhamidova, S. (2023). THE DESCRIPTION OF NATURE IN UZBEK POETRY. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(12), 135-139.
6. Abdikhamidova, S. (2023). THE INFLUENCE OF TRANSLATION CRITICISM ON THE DEVELOPMENT OF TRANSLATION STUDIES. Центральноазиатский журнал академических исследований, 1(2), 77-79.
7. Kizi, A. S. O. (2023). THE ART OF TRANSLATING; CAN EVERY BILINGUAL BECOME A SUCCESSFUL TRANSLATOR?. American Journal of Philological Sciences, 3(12), 142-146.
8. Abdikhamidova, S. (2023). USING IT TECHNOLOGIES IN TRANSLATION. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(27), 110-111.
9. Tesina di Laurea. The role of the translator in children’s literature: translation and analysis of Sara Zarr’s “A Song Called Home” (58 p). Anno Accademico 2021 / 2022.



## SARIMSOQ PIYOZNI TO'QSONBOSTI USULDA YETISHTIRISH

*Solijonov Shaxboz Zafarjon o'g'li**Namangan davlat universiteti o'qituvchisi**Yoqubjonova Laylo Baxromjon qizi**Soliyeva Shodiya Tursunpo'lat qizi**Baxtiyorova Shoxista Jaxongir qizi**Namangan davlat universiteti talabalari*

**Annotatsiya:** Maqolada sarimsoq piyoz biologiyasi, to'qsonbosti usulda yetishtirish texnologiyasi va foydalar haqida yozilgan.

**Kalit so'z:** sarimsoq piyoz, mulchalash, to'qsonbosti usul, fitonsit, vilt, poya nematoda.

**CULTIVATION OF GARLIC ONIONS IN TO'QSONBOSTI WAYS**

**Annotation:** the article is written about the biology of garlic, cultivate technology in a way by the name of To'qsonbosti and benefits.

**Key words:** garlic, mulch, To'qsonbosti method, fitonsit , wilt, illness of plant.

**ВЫРАЩИВАНИЕ ЛУКА-ЧЕСНОКА ДЕВЯНОСТО ПЯТЬЮ СПОСОБАМИ**

**Аннотация:** статья написана о биологии ключевого чеснока, технологии выращивания и пользе в To'qsonbosti метод

**Ключевые слова:** чеснок, мульчирование, метод То'sonbosti, фитонцид, увядание, стеблевая нематода.

**Kirish.** Sarimsoqpiyzning biologiyasi: Sarimsoq - piyozdoshlar oilasi, piyozlar turkumiga kiradi. Sarimsoq 2 va ko'p yillik bo'lishi mumkin. Sarimsoq piyozning vatani O'rta Osiyo. Yovvoyi holda- Hindiston, Qozogiston, Sibir kabi joylarda uchraydi. O'zbekistonda yovvoyi sarimsoq tog'li hududlarda uchraydi. Madaniy sarimsoqning 2ta turi mavjud: 1- gulpoya chiqarmaydi .

2- gullab urug' hosil qiladi . Sarimsoqning bargi lentasimon, ildizi -popuk ildiz, gullari- mayda, 2jinsli, qo'ng'iroqsimon, oq yoki binafsharang. Piyozi murakkab pardasimon umumiy qobiqda 7-30 dona mayda piyozchadan iborat.

**Sarimsoqpiyzni yetishtirish texnologiyasi:** - Sarimsoq boshchalarini ekishga tayyorlash: ekishdan oldin boshchalarini quyidagicha tayyorlanadi: 1) 2-3 daqiqa sho'r suvga solinadi (5litr suvga 3osh qoshiq)

2) 1-2 daqiqa mis sulfat eritmasiga solinadi (10litr suvga 1osh qoshiq). Ishchi qurollarni ham quyidagicha dezinfeksiyalanadi:



-kaliy permanganatning zaif eritmasi

-kulning infuzioni (10litr suvgaga 200gr). Qayta ishlangan boshchalarini 1hafta ichida ekish kerak .Sarimsoq sovuqqa chidamli bo‘ladi 7-8 C ° sovuqqa chidaydi. 10-12 ° issiqda yaxshi o‘sadi. 20-25C°da pishib yetiladi. O‘zbekistonda sarimsoq 1yilda 2 marta ekiladi.Bahorda va asosan kuzda.Madaniy sarimsoq urug‘ bermaydi , piyozdan tashqari gulpoysi to‘pgulida 10- 45 tagacha poya Sarimsoqchalar hosil qiladi.Sarimsoqpiyozni vegetativ yo‘l bilan kopaytiriladi.Sarimsoq piyozchalarini bahor va kuzda ekib sarimsoq piyoz boshini olish mumkin. 100m<sup>2</sup> yerga shunday piyozchalardan 10-15kg sarflanadi.Sug‘oriladigan yerkarda qator orasini-45sm ,o‘simlik orasini-4-8sm, 4-6sm chuqurlikka ekiladi.Ekib bo‘lingach tuproq somonli go‘ng, chirindi bilan mulchalanadi.Yetishtirish davrida 5-6marotaba sug‘oriladi va oziqlantiriladi. Sarimsoq o‘g‘itga ancha talabchan hisoblanadi. Qurigan go‘ng gettariga 20-30tonna,azot 200kg,fosfor 140-160kg,kaliy 60-75kg, solinadi. Fosforli va kaliyli o‘g‘itlarning 75% ekishdan oldin,qolgan qismini o‘suv davri davomida bo‘lib-bo‘lib berib boriladi. Sarimsoq yetilgandan keyin yulishga 20kun qolganda sug‘orish to‘xtatiladi. Sarimsoqning yetilganini tashqi 2-3ta barglari sarg‘ayishidan bilish mumkin. O‘zbekistonda erta pishar sarimsoqpiyodalardan "mayski" navi may oyi oxirlarida,kech pishar navlardan esa "Binafsharang,Janubiy binafsha rang" navlari iyun oyi boshida yetiladi. Hosildorlik 50-150 s / ga.Kasalliklari-vilt,asosiy zararkunandasi poya nematoda hisoblanadi .Bahor seryomg‘irli kelganda zang kasalligi tushadi.

**To‘qsonbosti usuli va uni afzalliklari:** to‘qsonbosti usuli-takroriy ekindan bo’shagan yerkarni shudgorlab,kech kuzda sabzavot ekinlari urug‘larini ekib, erta bahorda yig‘ib olish tushiniladi.To‘qsonbosti usulida ekilgan sabzavotlar erta bahorda yerdan unib chiqqanligi sababli erta hosil beradi. Urug‘lar yetarlicha chuqurlikka ekilganda urug‘lar qishda muzlab qolmaydi. Ekilgan urug‘lar mulchalanadi,unib chiqqan yosh maysalar sovuqqa chiniqadi ,chiniqqan maysalardan erta bahorda noqulay ob-havo kuzatilishiga qaramay sabzavotlar unib chiqadi va hosil beradi . Bu usul bilan bahorda ekilganga qaraganda 25-30kun ertaroq va 15-20%ko‘proq hosil olish mumkin . To‘qsonbosti usulida faqat sovuqqa chidamli,vegetatsiya davri uzoqroq bo‘lgan o‘simliklar yetishtiriladi.

**Sarimsoqpiyozning foydasi:** sarimsoq o‘zida oqsil,uglevod,efir moylari,antioksidantlar va 400 dan ortiq vitamin, mineral tuz va organik kislotalar hamda fitonsidlar saqlaydi. Sarimsoqda bundan tashqari alliin moddasini saqlaydi. Bu modda tabiiy antibiotik bo‘lgani uchun o‘pka rakini oldini oladi. Sarimsoqni foldali xususiyatlari

- oshqozon-ichak tizimini va ishtahani yaxshilaydi.
- siydiq va ter ajratilishiga yordam beradi
- ichaklarni dezinfeksiyalaydi
- qon tomirlarni kengaytirib, qon bosimini pasaytiradi

-yurak hurujini oldini oladi  
-shamollashni oldini oladi  
-sariq kasali,epilepsiya va migren bilan og'rigan bemorlarga shifokor nazoratida iste'mol qilish foydali.

Sarimsoq tavsiya etilmaydigan holatlar:

gemaroy,jigar ,buyrak,oshqozon yarasi kabi kasallanga bemorlarga tavsiya etilmaydi.

**Sarimsoqni saqlash:**sarimsoqni qurib yashil poyacha chiqarib qolganini ko'p kuzatkanmiz. Bunday bo'lmasligi uchun uni quyidagi holatda saqlash lozim:

1-sarimsoqni mayda ildizchalarini kesib tashlash

2-sarimsoqni qog'oz xaltalarda saqlash

3-sarimsoqni matoli xaltalarda muzlatgichda saqlash

4- Sarimsoqni kleylangan xaltalarda yani polietilen paketlarda saqlash mumkin emas. Terlab tez buzilishi mumkin . To'g'ri saqlanga sarimsoqlar o'z holatini 2oydan 8oygacha yo'qotmaydi.

**Xulosa:**sarimsoqpiyos o'simligi foydali va taomlarda o'z o'rniga ega bo'lgan sabzavot bo'lib,unga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Shu sababdan yerdan unumli foydalangan holda to'qson bosti usuldan foydalananib sifatli va ko'p hosil olish bilan aholini sarimsoqqa bo'lgan talabini qondirish mumkin.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

- 1.Zuyev V.I, Asatov. SH.I. aO.Kadirxodjaev, Ataxadjaev A.A. "Sabzavotchiligi" T-2018 y. (darslik)
- 2.Zuyev V.I, Asatov. Sh.I. O.Kadirxodjaev, Ataxadjaev A.A. U.I.Akramov, Овошеводство защищеннога грунта. Toshkent-2008 y. 460
- 3.O'zbekiston KXV va O'zbekiston KXFA tomonidan chikariladigan tavsiyanomalar.
4. Ataxodjaev A. «Himoyalangan joy sabzavotchiligi» magistratura talabalari uchun ma'ruza matnlari. T.2003
5. G'ayratbek Davronbekovich Rahmatullayev,Abdurahimov Diyorbek Dilshodjon o'g'li,Solijonov Shaxbozbek Zafarjon o'g'li. SCIENCE AND INNOVATION xalqaro ilmiy jurnali D seriyasi 2022 yil 2-son



## ТЕРРОРИЗМНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШ САБАБ ВА ОМИЛЛАРИ

**Мирходжаев Азимжон Мирхосилович**

Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси магистратура тингловчи

**Аннотация.** Мақолада терроризмнинг келиб чиқиш сабаб ва омиллари, ушбу сабаб ва шароитларни бартараф этиш бўйича ижтимоий-иктисодий, сиёсий, хуқуқий, маънавий ва ташкилий соҳаларда комплекс умумижтимоий ва маҳсус криминологик тадбирлар, терроризмнинг баъзи психологик жиҳатлари, индивидуал ва ижтимоий-психологик ёндашув ва қарашларнинг асосий жиҳатлари таҳлил қилинган.

**Таянч сўзлар:** Сабаб, омил, инстинктивизм, ижтимоий ва индивидуал психологик концепциялар, бихевиоризм, колективистик, агрессив, комплекс, бузгунчилик, деструктив, стимул.

### ПРИЧИНЫ И ФАКТОРЫ ВОЗНИКОВЕНИЯ ТЕРРОРИЗМА

Мирходжаев Азимжон Мирхосилович, слушатель магистратуры

Академии МВД Республики Узбекистан

**Аннотация.** В статье анализируются причины и факторы возникновения терроризма, комплексные общие и специальные криминологические мероприятия в социально-экономической, политической, правовой, духовной и организационной областях по устраниению этих причин и условий, некоторые психологические аспекты терроризма, основные аспекты индивидуальные и социально-психологические подходы и взгляды.

**Ключевые слова:** Причины, фактор, инстинктивизм, социальные и индивидуально-психологические концепции, бихевиоризм, коллективизм, агрессивность, комплекс, деструктивный, стимул.

### REASONS AND FACTORS OF TERRORISM

Mirkhodjaev Azimjon Mirkhosilovich, master's student at the Academy of the

Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

**Annotation.** The article analyzes the causes and factors of the emergence of terrorism, complex general and special criminological measures in the socio-economic, political, legal, spiritual and organizational fields to eliminate these causes and conditions, some psychological aspects of terrorism, the main aspects of individual and socio-psychological approaches and views



**Key words:** Causes, factor, instinctivism, social and individual psychological concepts, behaviorism, collectivism, aggressiveness, complex, destructive, incentive.

Терроризм ижтимоий-салбий ҳодиса сифатида давлат ва хуқуқнинг ривожига ўта салбий таъсир кўрсатади, шунингдек, мазкур жиноят ижтимоий ва миллий гурухлар ўртасида баъзан бутун бир авлод ҳаёти мобайнида бартараф этиб бўлмайдиган ишончсизлик ва нафрат келтириб чиқаради. Ушбу жиноят хавфсизликка ва ижтимоий-сиёсий барқарорликка таҳдид солиб, мамлакатдаги тинч ва осуда ҳаёт тарзини издан чиқаради, қанчадан-қанча бегуноҳ инсонларнинг бевақт ўлимига ёки ҳаёти хавф остида қолишига, давлат ва фуқароларнинг мол-мулкига ҳисобсиз заарар етказилишига, мамлакатдаги тикланмайдиган моддий ва маънавий бойликлар йўқ бўлишига, инсон хукуқ ва эркинликларининг поймол этилишига, мамлакатдаги ялпи нотинчликка сабаб бўлади.

Жумладан, 1999 йил 16 февралда Тошкент шаҳрида содир этилган террорчилик ҳаракатлари оқибатида 16 нафар бегуноҳ шахс ҳалок бўлган, 130 нафар шахс турли даражадаги тан жароҳати олган, 700 млн. сўмдан ортиқ миқдорда моддий заарар етказилган<sup>1</sup>, 50 дан зиёд маъмурий ва уй-жой бинолари заарланган[1]. 2004 йил 29 марта Тошкент шаҳрида ва Бухоро вилоятининг Ромитан туманида, 2004 йил 30 марта Тошкент вилояти Қиброй туманида, 2004 йил 1 апрелда Бухоро вилоятининг Ромитан туманида, 2004 йил 30 июля Тошкент шаҳрида содир этилган террорчилик ҳаракатлари оқибатида 38 нафар бегуноҳ шахс ҳалок бўлган[2]. 2005 йил 13 майда Андижонда содир этилган террорчилик оқибатида 169 киши ҳалок бўлган, қуролли хужум давомида террорчилар 305 дона қурол-аслаҳани, шу жумладан 205 та автомат ва 100 та тўппонча, 231 та граната ва қуролларни қўлга киритган, шунингдек, улар жазони ижро этиш муассасаларидан қарийб 600 нафар маҳбусни чиқариб юборган[3].

Терроризм сўнгги йилларда сиёсий, мафкуравий ва шахсий жиноий мақсадларда аҳолини қўрқитиш ҳамда давлат, ҳокимиёт ва бошқарув органларига руҳий тазийк ўтказишга қаратилган зўравонликнинг ҳаддан ташқари кучайиб кетишининг хавфли ижтимоий-сиёсий ҳодисасига айланди. Террорчилик ҳаракатлари, яъни одамларни гаровга олиш, давлат ва жамоат арбоблари, диний ёки бошқа гурухлар ҳамда хорижий давлатлар ва ташкилотлар вакилларининг ҳаётига таҳдид солиш, йирик объектларни эгаллаб олиш, портлатиш, одамларнинг соғлиғига, ҳаёти ва мулкига таҳдид солиш каби ҳаракатлар мамлакат тинчлигига путур етказади.

Сўнги йилларда мамлакатимизда террористик ҳаракатлар амалга оширилмаганига қарамай, дунёвий ва диний билимларнинг саёзлиги, соғ диний тушунчаларнинг асл мазмунини билмасликлари ёхуд ижтимоий-моддий

қийинчиликлар, турмуш даражасининг пасайиши натижасида диний-экстремистик оқимлар ҳамда террорчи ташкилот ва гурухлар томонидан “куфр диёри”, “хижрат”, “жиҳод”, “шахидлик”, “халифаликни тиклаш” каби ғоялар сингдирилган, улар сафига қўшилиш, жангларда иштирок этиш, моддий манфаатдорлик ваъда қилинган фуқароларимиз, айниқса ёшлар, турли тўқнашув ва низо ўчоқлари бўлган Сурия, Ироқ ва Афғонистонга кетиб, халқаро террористик ташкилотлар жангарилари сафида жанговар ҳаракатларда иштирок этишлари, келиб чиқиши Ўзбекистонлик бўлган шахсларнинг АҚШ, Швеция, Туркия ва бошқа чет давлатларда террористик ҳаракатлар содир этишлари, терроризм ва экстремизм билан боғлиқ жиноят содир этиб жавобгарликка тортилган шахсларни жазони ўтаб бўлганидан кейин яна қайта жиноятга қўл уриши мазкур муаммони бартараф этишда уларни жавобгарликка тортишнинг ўзи етарли эмаслигини кўрсатмоқда.

Терроризм хавфли ижтимоий-сиёсий ҳодисага айланиб бораётган бир пайтда унинг ижтимоий тизимида янгидан-янги сабаблар пайдо бўлиши шубҳасиз. Терроризм билан боғлиқ жиноятларининг олдини олиш, биринчидан, уларнинг жамиятда мавжуд бўлиши ва ўсиб боришини тақозо этувчи сабаб ва шароитларини аниқлашни, иккинчидан, ушбу сабаб ва шароитларни бартараф этиш бўйича ижтимоий-иктисодий, сиёсий, хуқуқий, маънавий ва ташкилий соҳаларда комплекс умумижтимоий ва маҳсус криминологик тадбирларни ишлаб чиқиш ҳамда амалга оширишни талаб қиласди.

Сабаб ва омил тушунчалари ҳақида аниқ тасаввурга эга бўлмай туриб ушбу ҳодисанинг ривожланиш тамойилларини башорат қилиш ва унинг олдини олишга қаратилган ишлар режасини тузиш мумкин эмас. Аввало, терминологик чалкашликка йўл қўймаслик учун жиноятчиликнинг сабаб ва омиллар каби тушунчаларни фарқлаб олиш мақсадида айрим терминологик аниқликларни киритиб олишимиз зарур. Ушбу тушунчалар баъзан синонимлар сифатида ишлатилади, ҳолбуки бу ҳар доим ҳам тўғри эмас. Чунки улар ўртасида маъно жиҳатдан фарқли баъзи томонлар бор.

Сабаб – сабаб-оқибат алоқалари занжирининг дастлабки нуқтаси бўлиб, оқибат билан аниқ омиллар орқали боғлиқдир. Омиллар эса – сабабнинг қисми, кўриниши бўлиб, улар туфайли белгилаб бериладиган ижтимоий ҳодисага бевосита таъсир кўрсатади. Яъни, сабаб юзага келтиришнинг кенгроқ ва айни вақтда юксакроқ даражасига киради. Омиллар эса – унинг жуда тор, аниқ ва оқибат билан бевосита боғлиқ бўлган даражаси. Бошқача айтганда, сабаб – биринчи, омил эса – иккинчи даражада ҳисобланади. Сабаб анча чуқур ва мазмунли бўлиб, қонуний алоқадорликни ифодалайди. Омиллар эса ҳам сабабий, ҳам сабабий бўлмаган алоқадорликни ифодалаши мумкин.

Шундай қилиб, омил – сабабнинг муайян жиҳати, унинг кўплаб кирраларидан, намоён бўлиш шаклларидан бири. “Омил” тушунчасининг бундай талқинига асосланиб, сабабни ўзаро таъсир кўрсатувчи омиллар мажмуи деб таърифлаш мумкин. Ушбу омиллар ўзаро таъсирининг оқибатида янги ҳодиса юзага келади. Сабаблар ўз-ўзича тенг аҳамиятли эмаслигини ҳам таъкидлаш лозим. Улар даражаси, аҳамияти, кенглиги ва бошқа кўрсаткичлари бўйича ажратилиши мумкин. Бу эса уларни қандайдир тизимга солиб таснифлаш имконини беради. Бу гап омилларга ҳам таалукли. Ушбу мақолада “сабаб” ва “омил” тушунчаларидан айнан шу маънода фойдаланилади.

Ўзбекистонда қарор топган ҳозирги ижтимоий-иктисодий вазиятни инобатга олсан, терроризмнинг аниқланган ва жуда хилма-хил сабаблари келажакда қандай оқибатларга олиб келади?

Терроризмнинг ривожланиш тамойиллари ва эволюцияси нуқтаи назаридан яқин бир неча йил ичида нимани кутиш мумкин?

Ушбу ҳолда гап ҳодисани башорат қилиш имкониятлари ҳақида бормоқда, бу ҳам, шубҳасиз, катта амалий аҳамиятга эга. Баъзи мутахассислар жиноятчиликнинг 200 дан ортиқ омиллари борлигини айтадилар. Терроризм, шу жиҳатдан, истисно эмас ва унинг кўп сонли сабаблари келиб чиқиши бўйича ҳам, таъсир кўрсатиш даражаси бўйича ҳам жуда хилма-хил хусусиятларга эга[4].

Шу боис уларни мантиқий ва аниқ чизма кўринишидаги қатъий тизим доирасига киритиш мухим. Терроризмнинг психологик, ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маданий-тарихий сабабларини ажратиш мумкин. Баъзи муаллифларнинг фикрича, терроризм келиб чиқиши учун нафақат объектив, балки муайян типдаги шахсларнинг, сиёсий зўравонлик ва мутаассиблик (фанатизм)нинг ўзига хос анъаналари асосида шаклланадиган муайян типдаги онгнинг пайдо бўлиши каби субъектив шарт-шароитлар ҳам керак. Бунда, объектив шарт-шароитлар ҳал қилувчи, аммо ҳар доим ҳам етарли бўлмаган омилдир. Чунки “бу шарт-шароитлар кўпчилик мамлакатлар учун умумий бўлиши мумкин, “ўз-ўзидан юзага келадиган” сиёсий терроризм эса уларнинг айримларида гина келиб чиқади”[5].

Ўзбекистонда терроризмнинг сабабларини ўзаро боғлиқ гурӯхлари мажмуи сифатида қараб чиқиш лозим. Унга мамлакатимизда терроризмга жиддий таъсир кўрсатувчи диний ва бошқа шу турдаги хусусиятлар киради. Булар анча барқарор, ҳар ҳолда узоқ вақт оралиғида амал қилиб келаётган, одатда кам сонли ва амалда сунъий таъсир кўрсатиб бўлмайдиган фундаментал, муайян маънода “абадий” сабаблар гурӯхи бўлиб, бир қатор аниқ криминоген омилларни – экстремизмнинг узлуксиз амал қилувчи генераторларини қамраб олади. Бундай сабабларни белгиланган вақтда портрайдиган минага қиёслаш мумкин. Улар амалда мустақил мавжуд бўлади ва мамлакатда барқарор ижтимоий-иктисодий

ва сиёсий вазият бўлганида ушбу сабаблар яширин бўлади ҳамда тутаб ётган, аммо исталган вактда ёнгин чиқариши мумкин бўлган ўчоклар хусусиятига эга бўлади. Улар одатда қандай қулай шароитлар (сиёсий инқирозлар, иқтисодий ва ижтимоий ларзалар ва ш.к.), яъни иккинчи даражадаги сабаблар юзага келганида пайдо бўлади.

Терроризмнинг “жорий”, доимий равишда ўзгарувчи ва чамбарчас боғлиқ бўлган кўп сонли қуидаги сабаблар мавжуд:

1) демографик муаммо; 2) қурол савдоси; 3) оммавий маданият; 4) миллатлараро муносабатлардаги кескинлик; 5) кўпгина масалаларнинг қонун даражасида тартибга солинмаганлиги ва бошқалар. Уларнинг амалий ифодасини, масалан, қурол-яроғнинг талон-тарож қилинишида (Андижон воқеаларида) кўриш мумкин.

Барча сабабларни амалий (операцион) жиҳатдан ички, яъни ички жараёнлардан ҳосил бўлган, ҳамда ташқи ташқаридан кириб келган сабабларга ажратиш мумкин. Терроризмнинг ижтимоий ва сиёсий манбалари муайян яхлитликни ҳосил қиласида ва бир-биридан ажralган ҳолда кўриб чиқилиши мумкин эмас. Улар жуда жўшқин бўлиб, у ёки бу жамият ҳаётида ривожланишининг муайян босқичида кечадиган мураккаб жараёнлар билан боғлиқ.

Шу ўринда терроризмнинг баъзи *психологик жиҳатларига* ҳам тўхталиш жоиз. Терроризм агрессия шакли бўлгани боис, унинг келиб чиқиши ва сабабларини психологик тушунтириш алоҳида шахс ёки ижтимоий гуруҳнинг хилма-хил кўринишиларда намоён бўладиган тажовузкор хулқ-авторини ўрганиш билан бевосита боғлиқ. Индивидуал психологияда ҳам, ижтимоий психологияда ҳам бу ҳодисага кўп эътибор берилган. Буни асосан Эрих Фромм, Карен Хорни, Конрад Лоренц, Зигмунд Фрейд, Б. Ф. Скиннер ва баъзи бир бошқа олимларнинг илмий асалларида кўрамиз. Бу эса жиноятларнинг чуқур мотивларини, жиноий хатти-харакат механизми, террорчи шахсини тушуниш йўлини кўрсатади.

Аммо бунда ушбу назарияларнинг ҳеч бири терроризмни яхлит тушунтирмаслигини ва умуман тушунтира олмаслигини, бироқ уларнинг ҳар бири муайян даражада мазкур ҳодисанинг баъзи психологик жиҳатларини очиб бера олишини ёдда тутиш лозим.

Мазкур ёндашувларни таҳлил қилиш қулай бўлиши учун улар учта катта гуруҳга бўлинади: инстинктивизм, ҳар хил ижтимоий ва индивидуал психологик концепциялар ҳамда бихевиоризм. Дастребаки иккитасининг моҳиятини ҳар хил тажовузкор кўринишилар сабабларини инсоннинг ўзидан, унинг инстинктларидағи биологик жиҳатлар ёхуд унинг психологик ички кечинмаларидан, майлларидан излаш ташкил қиласи. Бихевиористлар зўравонликнинг ижтимоий сабабларига эътибор қаратадилар. XX асрда кенг

тарқалған бихевиоризм оқими намояндаларининг фикрича, шахснинг барча хусусиятлари, шу жумладан онг ва ақлий қобилият ҳам наслдан наслга ўтади. Улар тарбиянинг шахс ривожланишига таъсирини инкор этади, уни шахснинг хусусиятларига таъсир этишдан ожиз деб билади. Одам қандай сифатлар билан туғилған бўлса, тарбия жараёнида билим олиш, кўникма ва малака ҳосил этиши натижасида шу сифат ва хусусиятлар ривожланиб боради деган фикрни илгари сурадилар.

Инстинктивизмнинг ёрқин вакили Конрад Лоренц ва қўп даражада психоанализ асосчиси Зигмунд Фрейд бўлган. Фрейд тажовузкорликни инсон онг ости соҳасининг иккиёқламалиги, яъни унда инсоннинг хатти-харакатини белгилаб берувчи ҳаётга мойиллик ва ўлимга мойиллик мавжудлиги билан изоҳлаган[6].

Фрейднинг фикрича, Эдип комплексига асосланадиган ўлим инстинкти либидо, эрос ва ўзини ўзи сақлаш инстинкти билан зиддиятга киришади[7]. Терроризмнинг психологик илдизларини тушуниш учун Фрейднинг ўлим инстинкти қисман либидонинг кучлари билан нейтраллаштирилиши, қисман эса турли зўравонлик ҳаракатларида моддийлашадиган ташқи тажовуз ўзанига қаратилиши мумкин. Агар бунинг иложи бўлмаса, тажовузкорлик инсоннинг ўзига қарши қаратилади, яъни аутоаггрессия шаклига киради. Бу эса муқаррар тарзда ўзини нобуд қилиш ва йўқ қилишга олиб келади. Баъзи бир террорчи-камикадзеларнинг бир қарашда бемаъни кўринадиган ўзини ўзи ўлдириш ҳаракатларини ана шу ҳолат билан изоҳлаш мумкин. Бундан ташқари, Фрейд онгсизликнинг инстинктив тажовузкор тамойиллари билан маданият талаблари ўртасидаги аниқ низони кўрсатган. Маданият “юқори даражадаги Мен”[8] – қандайдир идеал, ахлоқ, виждон ёрдамида индивидда азалдан мавжуд бўлган тажовузга ташналиктни бостиради ва шу тариқа спонтан кўринишларни келтириб чиқаради. Шу маънода, Зигмунд Фрейд концепциялари ва Конрад Лоренцнинг кенгроқ ғоялари умумий жиҳатларга эгадир. Конрад Лоренц инсонда худди ҳайвонда бўлгани каби азалдан унга берилган ҳамда яшаш учун курашнинг табиий кўриниши бўлган тур ичидаги агрессия инстинкти мавжуд, деб ҳисоблаган[9]. Бироқ ҳайвонларда, олимнинг фикрича, ушбу ҳаётий энергияни ифодаловчи зарурӣ, айни вақтда жуда хавфли инстинкт ундаги бузгунчи ибтидоларни тормозлаш механизми билан мувозанатга келтирилади. Ушбу механизм уни ўз турига мансуб ҳайвонларга нисбатан қатъий чегаралайди ва бир-бирини батамом йўқ қилишига имкон бермайди. Инсонда эса, у табиатан деярли қуролланмаган ва ҳимоясиз бўлгани боис (шу сабабли инсон ҳимояланиш учун сунъий воситалар излаши – қурол-яроғ яратиши ва уни доимо такомиллаштиришига тўғри келган), ўзига ўхшаганларни бемаъни ўлдиришнинг олдини олувчи бу механизм жуда кам ривожланган[10].

